

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy bankida

2023-yil "14" avgust da  
ro'yxatga olingan

Ro'yxatga olish raqami 82/8

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki raisining  
birinchi o'rinbosari



N.N. Saydullayev

M.O:

**“Madad Invest Bank”  
aksiyadorlik tijorat banki  
Ustaviga kiritilgan  
o'zgartishlar**

**“TASDIQLANGAN”**  
“Madad Invest Bank” ATB  
Kuzatuv kengashi majlisining  
2023-yil “7”avgustdagi  
50-sonli bayonnomasi bilan

**Kuzatuv kengashi raisi**



M.SH.Yo'ldoshev

M.O:

Farg'ona – 2023 yil

## “Madad Invest Bank” aksiyadorlik tijorat banki Ustaviga kiritilgan o‘zgartishlar

### 1. Ustavning 32-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“32. Bankning ustav kapitali miqdori 150 000 000 000 (bir yuz ellik milliard) so‘mni tashkil qiladi hamda bir donasining nominal qiymati 5 000 (besh ming) so‘m bo‘lgan 30 000 000 (o‘ttiz million) dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalarga bo‘lingan”.

### 2. Ustavning 34-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“34. Bankning ustav kapitali qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin.

Ustav kapitalini oshirish maqsadida bank joylashtirilgan aksiyalarga qo‘shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo‘lgan bank chiqarishi mumkin bo‘lgan e‘lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdori bir donasining nominal qiymati 5 000 (besh ming) so‘m bo‘lgan 10 000 000 (o‘n million) dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalardan iborat”.

Boshqaruv raisi



O.YU. Ashiraliyev

объект 2023 yil № 50

Фарғона шаҳар С.Темур кўчаси 71-уй  
Мажлис бошланиш вақти-19-00

Мажлис раиси: М.Ш.Йўлдашев – Банк Кузатув кенгаши раиси

Иштирок этганлар:

Банк Кузатув кенгаши аъзолари – К.Ф.Арипов, Ғ.Ғ.Маннонов, Ш.И.Мустафакулов,  
С.Р.Нишонов.

Иштирок этмаган Банк Кузатув кенгаши аъзолари – йўқ

Мажлис кворуми: 100% - Мажлис кворумга эга, 5 та Банк Кузатув кенгаши аъзоси иштирок  
этилганда.

Таклиф этилганлар:

Банк Бошқаруви раиси - О.Ю.Аширалиев, Банкнинг таркибий тузилма раҳбарлари

Мажлис котиби: М.А.Муротова

#### КУН ТАРТИБИ:

1. “Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банки Уставига ўзгартишлар  
киритиш ва тасдиқлаш.

1. Кун тартибидаги биринчи масала юзасидан, Банк Кузатув кенгаши раиси  
М.Ш.Йўлдашев сўзга чиқиб, куйидагиларни маълум қилди.

Банк акциядорларининг навбатдаги йиллик умумий йиғилишининг 2023 йил  
22 июндаги қарори билан тасдиқланган ва Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия  
вазирлиги томонидан 2023 йил 1 августда Р08753-сон билан рўйхатга олинган Банкнинг  
қўшимча акцияларининг учинчи чиқарилиши бўйича Акциялар қўшимча чиқарилиши  
тўғрисидаги қарорга мувофиқ, номинал қиймати 5 000 сўм бўлган 10 000 000 дона умумий  
қиймати 50 000 000 000 сўмлик оддий акциялар акциядорлар ўртасида 2023 йил 7 август  
куни тўлиқ жойлаштирилди.

Натижада, Банк устав капитали миқдори ўз капитали, яъни таксимланмаган фойдаси  
хисобидан 150 000 000 000 (бир юз эллик миллиард) сўмга етказилиб, номинал қиймати  
5 000 (беш минг) сўм бўлган 30 000 000 (ўттиз миллион) дона эгасининг номи ёзилган  
ҳужжатсиз шаклдаги оддий акциялардан ташкил топди.

Юқоридагиларни инобатга олиб, Банк Уставига устав капиталини кўпайтириш ҳамда  
эълон қилинган акциялари сонини камайитириш билан боғлиқ ўзгартишлар (матни  
1-иловада келтирилади) киритилиши лозим.

Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг  
ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни 59-моддаси ҳамда Банк Устави 41-банди  
ва 161-банд 10-хатбошисига мувофиқ, Банк Кузатув кенгаши раиси М.Ш.Йўлдашев кун  
тартибидаги масала юзасидан куйидаги қарор матнини овозга қўйди:

- “Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банки Уставига устав капитали  
150 000 000 000 (бир юз эллик миллиард) сўм миқдоригача кўпайганлиги ва эълон

Банк Кузатув  
кенгаши раиси:



М.Ш.Йўлдашев

Мажлис  
вақти  
19:00  
вақтга

қилинган акциялари сонини 10 000 000 (ўн миллион) донага камайтириш бўйича иловага мувофиқ ўзгартишлар киритиш ва тасдиқлаш;

-“Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банки Уставига киритилаётган ўзгартишларни амалдаги қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда Ўзбекистон Республикаси Марказий банкида рўйхатдан ўтказиш вазифаси Банк Бошқаруви зиммасига юклатилсин.

**Овоз берилди:**

Тарафдорлар – М.Ш.Йўлдашев, К.Ф.Арипов, Ғ.Ғ.Маннонов, Ш.И.Мустафакулов, С.Р.Нишонов.

Қаршилар – йўқ

Бетарафлар – йўқ

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, Банк Кузатув кенгаши

**ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1. “Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банки Уставига устав капитали 150 000 000 000 (бир юз эллик миллиард) сўм миқдоригача кўпайганлиги ва эълон қилинган акциялари сонини 10 000 000 (ўн миллион) донага камайтириш бўйича иловага мувофиқ ўзгартишлар киритилсин ва тасдиқлансин;

“Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банки Уставига киритилаётган ўзгартишларни амалдаги қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда Ўзбекистон Республикаси Марказий банкида рўйхатдан ўтказиш вазифаси Банк Бошқаруви зиммасига юклатилсин.

Йиғилиш баённомаси 2023 йил 07 август куни тузилди.


Йиғилиш раиси



М.Ш.Йўлдашев



К.Ф.Арипов



Ғ.Ғ.Маннонов



Ш.И.Мустафакулов



С.Р.Нишонов

Мажлис котиби



М.А.Муротова

“Мадад Инвест Банк”  
 акциядорлик тижорат банки  
 Кузатув кенгаши мажлисининг  
 2023 йил 7 августдаги  
 50-сонли Баённомасига илова

**“Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банки  
 Уставига киритилаётган ўзгартишлар**

Тр	Амалдаги тахрир	Янги тахрир
1.	32. Банкнинг устав капитали миқдори <b>100 000 000 000 (бир юз миллиард)</b> сўмни ташкил қилади ҳамда бир донасининг номинал қиймати 5 000 (беш минг) сўм бўлган <b>20 000 000 (йигирма миллион)</b> дона эгасининг номи ёзилган ҳужжатсиз шаклдаги оддий акцияларга бўлинган.	32. Банкнинг устав капитали миқдори <b>150 000 000 000 (бир юз эллик миллиард)</b> сўмни ташкил қилади ҳамда бир донасининг номинал қиймати 5 000 (беш минг) сўм бўлган <b>30 000 000 (ўттиз миллион)</b> дона эгасининг номи ёзилган ҳужжатсиз шаклдаги оддий акцияларга бўлинган.
2.	34. Банкнинг <b>Устав</b> капитали қўшимча акцияларни жойлаштириш йўли билан қўпайтирилиши мумкин. Устав капиталини ошириш мақсадида банк жойлаштирилган акцияларга қўшимча равишда жойлаштиришга ҳақли бўлган банк чиқариши мумкин бўлган эълон қилинган акцияларнинг энг кўп миқдори бир донасининг номинал қиймати 5 000 (беш минг) сўм бўлган <b>20 000 000 (йигирма миллион)</b> дона эгасининг номи ёзилган ҳужжатсиз шаклдаги оддий акциялардан иборат.	34. Банкнинг <b>устав</b> капитали қўшимча акцияларни жойлаштириш йўли билан қўпайтирилиши мумкин. Устав капиталини ошириш мақсадида банк жойлаштирилган акцияларга қўшимча равишда жойлаштиришга ҳақли бўлган банк чиқариши мумкин бўлган эълон қилинган акцияларнинг энг кўп миқдори бир донасининг номинал қиймати 5 000 (беш минг) сўм бўлган <b>10 000 000 (ўн миллион)</b> дона эгасининг номи ёзилган ҳужжатсиз шаклдаги оддий акциялардан иборат.

04/1725

2023 yil

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki raisining birinchi  
o'rinbosari  
N.N. Saydullaevga

Hurmatli Nodirbek Narzullaevich!

"Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat banki Kuzatuv kengashining 2023 yil 7 avgust kuni bo'lib o'tgan majlisida bank Ustaviga ustav kapitali ko'paytirilishi va e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bo'yicha kiritilayotgan o'zgartishlarni tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan, Sizdan "Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat banki Ustaviga kiritilgan o'zgartishlarni ro'yxatdan o'tkazishingizni so'raymiz.

Quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1. Bank Kuzatuv kengashi majlisining 2023 yil 7 avgustdagi 50-sonli hujjatnomasi nusxasi – 3 nusxada;
2. Bank Ustaviga kiritilgan o'zgartishlar matni – 3 nusxada.

Ilova: 15 varaqda

Hurmat bilan,

Boshqaruv



O.Yu. Ashiraliev

Бошқарув раиси

Жами

3

42

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

1

О.Ю. Аширалиев

вақарда

**Тилилган ва рақамланган**

**6** ( **олта** **беса** )  
БАРДИНИН ИБОДИТ

**11 август**

**2023 йилга**

**№30**



O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki tomonidan  
«18» aprel 2023 yil  
82 - son bilan  
ro'yxatga olingan

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki Raisining  
birinchi o'rinbosari



N.N.Saydullayev

“Madad Invest Bank”  
aksiyadorlik tijorat bankining  
**USTAVI**  
(yangi tahriri)

“Madad Invest Bank” aksiyadorlik  
tijorat banki Aksiyadorlarining  
2023 yil “23” martdagi navbatdan  
tashqari umumiy yig'ilishi tomonidan  
(12 - sonli bayonnoma)  
«TASDIQLANGAN»  
Yig'ilish raisi

 M.SH.Yo'ldoshev



Farg'ona 2023 yil

## **“Madad Invest Bank” aksiyadorlik tijorat bankining Ustaviga kiritilayotgan o‘zgartishlar va qo‘shimchalar**

Ta‘sischilar umumiy yig‘ilishining 2016 yil 17 avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan va 2016 yil 18 noyabr, 2017 yil 26 dekabr, 2018 yil 20 aprel, 2019 yil 10 oktyabr, 2023 yil 23 martdagi qarorlari bilan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan “Madad Invest Bank” aksiyadorlik tijorat bankining Ustavi

### **1. Umumiy qoidalar**

1. “Madad Invest Bank” xususiy aksiyadorlik tijorat banki ta‘sischilarning 2015 yil 25 noyabrdagi № 1-sonli va 2016 yil 15 yanvardagi № 2-sonli ta‘sischilar umumiy yig‘ilishi qarorlariga binoan tashkil etilib, uning tashkiliy huquqiy maqomi aksiyadorlik jamiyati deb belgilangan. “Madad Invest Bank” xususiy aksiyadorlik tijorat banki ta‘sischilarning 2016 yil 18 noyabrdagi № 4-sonli ta‘sischilar umumiy yig‘ilishi qarori bilan Ustavga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan. “Madad Invest Bank” xususiy aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlarining 2017 yil 26 dekabrda navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra, “Madad Invest Bank” xususiy aksiyadorlik tijorat banki “Madad Invest Bank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – Bank deb yuritiladi) sifatida maqomi o‘zgartirildi va Ustavga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi. “Madad Invest Bank” xususiy aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlarining 2018 yil 20 apreldagi, 2019 yil 10 oktyabrdagi, 2023 yil 23 martdagi qarorlari bilan Ustavga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

2. Bankning to‘liq firma nomi:

- o‘zbek tilida (Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida) – “Madad Invest Bank” aksiyadorlik tijorat banki;
- o‘zbek tilida (kiril alifbosida) – “Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банки;
- rus tilida – Акционерно-коммерческий банк “Мадад Инвест Банк”;
- ingliz tilida – Joint-Stock Commercial Bank “Madad Invest Bank”;

3. Bankning qisqartirilgan firma nomi:

- o‘zbek tilida (Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida) – “Madad Invest Bank” ATB;
- o‘zbek tilida(kiril alifbosida) – “Мадад Инвест Банк” АТБ;
- rus tilida – АКБ “Мадад Инвест Банк”.
- ingliz tilida – JSCB “Madad Invest Bank”.

4. Bank manzili (pochta manzili): 150100, O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 312-uy.

Bankning elektron pochta manzili: [info@madadinvestbank.uz](mailto:info@madadinvestbank.uz)

Bankning veb-sayti: [www.madadinvestbank.uz](http://www.madadinvestbank.uz)

5. Bank o‘z firma nomini faqat o‘zi qo‘llash huquqiga ega.

6. Bank o‘zbek tilida o‘zining to‘liq firma nomi aks ettirilgan va uning manzili ko‘rsatilgan yumaloq muhriga, o‘z firma nomi yozilgan shtamlari va blankalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan qayd qilingan tovar belgisiga ega.

7. Bank O‘zbekiston Respublikasining yagona bank tizimiga kiradi va o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (keyingi o‘rinlarda – Markaziy bank) boshqa me‘yoriy hujjatlari hamda mazkur ustavga amal qiladi.

8. Bank yuridik shaxs hisoblanadi va o‘zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o‘zining ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga

majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Bank qonunchilikda belgilangan tartibda Markaziy bankda ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

9.O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan bank kapitalida ishtirok etishi ta'qiqlanmagan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar bank aksiyadorlari (ta'sisчилari) bo'lishi mumkin.

10.Bank o'z aksiyadorlarining majburiyatlari bo'yicha javobgar hisoblanmaydi. Aksiyadorlar bankning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarni o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida to'laydilar.

11.Bank davlat va uning tashkilotlari majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi, huddi shuningdek davlat ham bankning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi, davlatning o'zi bunday majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan hollar bundan mustasno. Bank, Markaziy bank majburiyatlari yuzasidan javobgar emas, uning o'zi bunday majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan hollar bundan mustasno.

12.Bank o'z faoliyatini amalga oshirish uchun Markaziy bank hamda boshqa banklarda o'zining vakillik hisobvaraqlarini ochadi.

13.Bank O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari talablariga binoan O'zbekiston Respublikasi hududida yoki undan tashqarida mustaqil yoki boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan birgalikda boshqa tijorat va notijorat tashkilotlarda ishtirok etish huquqiga ega.

14.Bank faoliyati muddati cheklanmagan tarzda tashkil etiladi va o'z faoliyatini Markaziy bank tomonidan bank amaliyotlarini amalga oshirish huquqi berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

15. Bank qarorlar qabul qilishda davlat hukumati va boshqaruvi tashkilotlariga qaram emas, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

## **II. Bank faoliyatining maqsadi va turlari**

16. Bank faoliyatining asosiy maqsadlari quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida investitsion va tijorat faoliyatining o'sishiga ko'maklashish;

- xususiy ishbilarmonlik shakllanishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;

- xususiy va jalb qilingan mablag'lardan foydalanib, daromad olish.

17.Ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun bank quyidagi asosiy faoliyat turlarini amalga oshiradi:

- O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi (so'm) hamda chet el valyutalarida yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini jalb qiladi;

- mijozlarining ishlab chiqarish, savdo va boshqa faoliyat bilan bog'liq amaliyotlarini kreditlashni amalga oshiradi;

- Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya asosida barcha bank xizmatlarini ko'rsatadi;

- amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartib va hollarda qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiradi;

- bank faoliyati sohasida maslahat xizmatlari ko'rsatadi;

- bank faoliyatining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan ta'qiqlanmagan boshqa turlarini amalga oshiradi.

18.Bank bevosita ishlab chiqarish, savdo va sug'urta faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega emas, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

## **III.Bankning huquq va majburiyatlari**

19.Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxsning barcha huquqlaridan foydalanadi, shu jumladan, quyidagi huquqlarga ega:

- O'zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida O'zbekiston Respublikasi

qonunchiligiga rioya qilgan holda o'z nomidan bitimlar tuzish va boshqa amaliyotlarni amalga oshirish;

- mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo'lish, mulkdor bo'lish, ijaraga olish, bank faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha ko'char va ko'chmas mulk turlaridan foydalanish va ularni erkin ishlatish;

- bank rivojlanishi uchun turli grant va boshqa bepul beriladigan mablag'larni pul va natural shakllarida olish va ulardan erkin foydalanish;

- mijozlar bilan kelishilgan bitimlarda ko'zda tutilgan tartibda kredit, mablag' qo'yish (depozitlar) yuzasidan xizmat ko'rsatish uchun foiz stavkalari va komission to'lovlarni belgilash;

- amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa banklarda, shu jumladan, chet el banklarida milliy va xorijiy valyutalarda hisobvaraqlar ochish;

- majburiyatlarini bajarishni ta'minlash bo'yicha milliy valyutada hamda chet el valyutasida kafolat, garov bitimlari va boshqa kelishuvlarni tuzish, bank kafolatlarini berish va qabul qilish;

- amaldagi qonunchilikda belgilangan talablarga rioya qilgan holda aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari hamda notijorat tashkilotlarni tashkil etish yoki ularning ishtirokchisi, a'zosi sifatida qatnashish;

- Markaziy bank ruxsati bilan xorijda sho'ba banklarini ochish, banklarni tuzishda ishtirok etish;

- O'zbekiston Respublikasida va undan tashqarida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda filial va vakolatxonalar ochish;

- xayriya faoliyati bilan shug'ullanish;

- kredit ajratilgan yuridik shaxslardan belgilangan tartibda hisobotlar, balanslar va ularning to'lovga layoqatligi va berilayotgan kreditlarning ta'minlanganligini tasdiqlovchi va boshqa hujjatlarni talab qilish;

- qarz oluvchilardan belgilangan tartibda ajratilayotgan kreditlar qaytarilishini ko'char yoki ko'chmas mulk, shu jumladan qimmatli qog'ozlar, kafolatlar va amaldagi qonunchilik yoki bitimlarda ko'zda tutilgan boshqa usullarda garov bilan taminlanishini talab qilish;

- qarz oluvchi tomonidan bitim bo'yicha majburiyatlari buzilganida hamda buxgalteriya hisoboti buzib ko'rsatilgan yoki buxgalteriya hisobini olib borishdan bo'yin tovlagan hollarda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda kredit ajratilishini to'xtatish, ajratilgan kreditlar va bu kreditlar yuzasidan foizlarni muddatidan oldin talab qilish hamda kredit qaytarilishini ta'minotiga qaratish;

- xususiy va jalb qilingan mablag'lari ishtirokida moliyalashtirilishi nazarda tutilayotgan investitsion va boshqa loyihalarning mustaqil ekspertizasini talab qilish;

- bitimlar asosida boshqa banklarning mablag'larini depozitlar, kreditlar shaklida jalb qilish va joylashtirish;

- hisob - kitoblarni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisob-kitob kassa markazi va vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshirish;

- bank xodimlarining mehnatiga haq to'lash shakllari, tizimlari va tartibini mustaqil belgilash, bank boshqaruvi organlari tomonidan tasdiqlangan ish haqi ajratmalari me'yorlari doirasida bank xodimlarining ish haqlarini belgilash;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

20. Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan bino va omborlarning qo'riqlanishi, pul mablag'lari, boyliklar va uskunalarning saqlanishini ta'minlaydi.

21. Bankning majburiyatlari:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish;

- o'ziga egalik qilish va foydalanish uchun berilgan pul mablag'lari va boshqa boyliklarning saqlanishini ta'minlash;

- qonunchilikda ko'zda tutilgan tartib va hollarda o'z mijozlari, shu jumladan, vakil banklarning amaliyotlari, hisobvaraqlari va mablag' qo'yilmalarini kafolatlash;

- Markaziy bank hamda halqaro bank amaliyotida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda

belgilangan shakllarda hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- belgilangan tartibda statistik, moliyaviy va buxgalterlik hisobotini olib borish va ko'rsatish;
- Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy me'yorlarga oid talablarni bajarish;
- o'z kapitalini qonunchilik tomonidan belgilangan darajada saqlab turilishini ta'minlash.

Bank amaldagi qonunchilik va mazkur ustavda belgilangan boshqa majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi.

#### **IV. Bank amaliyotlari**

22. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan bank Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziyaga ko'ra quyidagi bank amaliyotlarini amalga oshiradi:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish va qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;
- to'lovlarni amalga oshirish;
- kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish;
- jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob qilish;
- mablag' egasi yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish;
- chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shakllarida belgilangan tartibda yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish;
- bank kafolatlari berish;
- pul mablag'lari, veksellar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish;
- uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;
- uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish (faktoring);
- qimmatli qog'ozlar chiqarish, harid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga asosan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa amaliyotlarni bajarish;
- bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish;
- jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish;
- moliyaviy lizing;
- halqaro bank amaliyotiga muvofiq, litsenziyada maxsus ko'rsatilgan boshqa amaliyotlarni amalga oshirish.

Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya mavjud bo'lgan holda mazkur bandda keltirilgan barcha bank amaliyotlari va boshqa bitimlar milliy valyuta bilan bir qatorda xorijiy valyutalarda ham amalga oshirilishi mumkin.

23. Bank qimmatli qog'ozlar bozorida amaldagi qonunchilik Markaziy bank tomonidan bank faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaga binoan sarmoya aktivlarini boshqaruvchi sarmoya vositachisi va sarmoya maslahatchisi sifatida professional faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Ayni paytda bank tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat ko'rsatish uchun alohida litsenziya olish talab qilinmaydi.

#### **V. Filial va vakolatxonalar**

24. Markaziy bankning oldindan roziligi bilan bank belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasida va uning tashqarisida yuridik shaxs huquqini bermagan holda filial va vakolatxonalar ochish huquqiga ega.

25. Filial va vakolatxonalar ochish Bank Kuzatuv kengashi qarori asosida amalga oshiriladi. Ularga Bank mulki beriladi va ular Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan tartib va Bank litsenziyasiga hamda bank tomonidan berilgan vakolatlar doirasida o'z faoliyatini olib boradi.

26. Filial rahbari va vakolatxona rahbari Bank Kuzatuv kengashining filialni tashkil etish to'g'risidagi qarori asosida Bank boshqaruvi raisining buyrug'iga binoan tayinlanadi va Bank tomonidan belgilangan tartibda berilgan ishonchnoma asosida ish olib boradi. Bank filiali rahbarini tayinlash Markaziy bank roziligi bilan amalga oshiriladi.

Bank filiali rahbari va vakolatxonasi rahbari tayinlanishidan oldin uning nomzodi Bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlanishi shart.

27. Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi tashqarisida filiallar tashkil etilishi va vakolatxonalar ochilishi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda va O'zbekiston Respublikasining xalqaro kelishuvida boshqa hollar nazarda tutilmagan bo'lsa, filial va vakolatxonalar joylashgan mamlakatning amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28. Bank filiallari bank balansiga kiruvchi alohida balanslarga ega bo'ladi. Vakolatxonalar mulki bank balansida hisobga olinadi.

29. Filial va vakolatxonalar faoliyati bo'yicha javobgarlik bank zimmasiga yuklatiladi.

30. O'zbekiston Respublikasi hududidagi bank filiallari Markaziy bankda davlat ro'yxatidan o'tgan paytidan boshlab o'z faoliyatini yuritish huquqiga ega bo'ladi.

## **VI. Ustav kapitali**

31. Bankning ustav kapitali aksiyadorlar sotib olgan bank aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Bankning ustav kapitali uning mol-mulkinging o'z kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan darajadagi eng kam miqdorini belgilaydi.

32. Bankning ustav kapitali miqdori 100 000 000 000 (Bir yuz milliard) so'mni tashkil qiladi hamda bir donasining nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 20 000 000 (yigirma million) dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalarga bo'lingan.

33. Bankning ustav kapitali bank ta'sischilari va aksiyadorlari tomonidan faqat pul mablag'lari bilan to'lanadi.

34. Bankning Ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

Ustav kapitalini oshirish maqsadida bank joylashtirilgan aksiyalarga qo'shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo'lgan bank chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdori bir donasining nominal qiymati 5 000 (besh ming) so'm bo'lgan 20 000 000 (yigirma million) dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalardan iborat.

35. Bankning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan, aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Bank tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

36. Bank ustav kapitalini ko'paytirish va kamaytirish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, belgilangan tartibda va shartlarda amalga oshiriladi.

## **VII. Bank aksiyalari**

37. Bankning barcha aksiyalari oddiy aksiyalar hisoblanadi. Bankning barcha aksiyalari hujjatsiz shaklda chiqariladi.

38. Bank oddiy aksiyalarini joylashtirishi shart hamda bir yoki bir nechta turdagi imtiyozli aksiyalarni joylashtirish huquqiga ega. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati bank ustav kapitalining 25 foizidan oshmasligi lozim.

39. Bir oddiy aksiya bir ovoz bilan aksiyadorga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqini beradi.

40. Bank aksiyalarni qo'shimcha ravishda mazkur ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasida joylashtirish huquqiga ega. Aks holda mazkur ustavga chiqarilishi

mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarning yangi miqdorini belgilash to'g'risida tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

41. Bank Ustavida belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni va turi doirasida qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan Bank ustav kapitalini ko'paytirish va Bank ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qarorlar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

42. Bankning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish bankning o'z kapitalini kapitallashtirish hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

43. Bankning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, bankning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

44. Bank tomonidan muayyan turdagi aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda bu turdagi e'lon qilingan aksiyalar miqdori bu qimmatli qog'ozlar muomalasi muddati mobaynida ayirboshlash uchun zarur miqdoridan kam bo'lmasligi lozim.

45. Bank qimmatli qog'ozlar egalari tomonidan roziligidan bank tomonidan joylashtirilgan qimmatli qog'ozlarga ayirboshlanishi mumkin bo'lgan aksiyalar beradigan huquqlarni cheklash bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega emas.

46. Oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlanishi mumkin emas.

### VIII. Aksiyadorlarning huquq va majburiyatlari

47. Aksiyadorlar quyidagi huquqlarga ega:

- bankning aksiyadorlari reestriga kiritilish;
- o'zi haqida depozitariyadagi depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;
- bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- bank tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali bankni boshqarishda ishtirok etish;
- bankning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olingan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat tashkilotida, shuningdek, suda o'z huquqlarini himoya qilish;
- o'ziga etkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog'ozlar sotib olish vaqtida zarar ko'rish va (yoki) foydaning bir qismini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchilikni sug'urtalash huquqiga ega.
- qonun hujjatlarida va Bank ustavida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

48. Bankning har bir oddiy aksiyasi uning egasi bo'lgan aksiyadorga bir xil hajmda huquqlar beradi. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ushbu ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishlari mumkin, shuningdek, dividendlar olish, bank tugatilgan taqdirda esa, bank mol-mulkining bir qismini olish huquqiga egadirlar.

49. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga ega bo'lgan aksiyadorlari (aksiyadori) bankning moliya yili tugaganidan keyin uzog'i bilan 30 kun ichida aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Bank Kuzatuv kengashi va bank taftish komissiyasiga (taftishchiligiga) miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlarni taklif etish huquqiga ega.

50. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga ega bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) Bank Kuzatuv

kengashidan bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishini talab qilish, bu hol rad etilganda esa bunday yig'ilishni chaqirish huquqiga ega.

51. Bank yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga ega bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) bankka etkazilgan zararining o'rnini qoplashni da'vo qilib Bank Kuzatuv kengashi a'zosi, yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi, kollegial ijroiya organi (boshqaruv) a'zosi, shuningdek boshqaruvchi ustidan sudga murojaat qilishga haqlidir.

52. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi shaxsan aksiyador tomonidan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi.

53. Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

54. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma ishonchnoma asosida ish ko'radi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi yoki nomi, turar joyi yoki joylashgan manzili, pasport ma'lumotlari) aks ettirilgan bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbari imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan holda beriladi.

55. Agar bank aksiyasi bir necha shaxslarning umumiy ulushli mulki bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish vakolati ularning xohishiga ko'ra umumiy ulushli qatnashchilaridan biri yoki ularning umumiy vakili tomonidan amalga oshiriladi. Ko'rsatib o'tilgan har bir shaxsning vakolatlari tegishli tarzda rasmiylashtirilishi kerak.

56. Ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar:

- Bankni qayta tashkil etish to'g'risida;
- joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirish haqida;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorga binoan Bank tomonidan mol-mulkni olish yoki boshqa shaxsga berish bilan bog'liq yirik bitim tuzish to'g'risida;

Bankning ustaviga ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklovchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi ustavni tasdiqlash to'g'risida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qarorlar qabul qilishda, agar ular qarshi ovoz bergan bo'lsa yoxud ovoz berishda uzrli sabablarga ko'ra ishtirok etmagan bo'lsa, o'zlariga tegishli aksiyalarning hammasi yoki bir qismi bank tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilishga haqlidirlar.

57. O'zlariga tegishli aksiyalarni Bankning qaytarib sotib olishini talab qilish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxati ovoz berish natijasida aksiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilish huquqi vujudga kelishi mumkin bo'lgan masalalar kun tartibiga kiritilgan umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan bank aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

Bank tomondan aksiyalarni qaytarib sotib olish ushbu aksiyalarning bozor qiymati bo'yicha amalga oshiriladi, bu qiymat Bankning aksiyalarni baholashni va qaytarib sotib olishni talab qilish huquqi yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan harakati natijasida qiymatning o'zgarishi hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

58. Aksiyadorlarning o'zlariga tegishli aksiyalarning bank tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan amalga oshiriladi.

59. Aksiyadorlarning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- aksiyalarni o'z muddatida, aksiyalarni chiqarish to'g'risida qarorda ko'zda tutilgan usullar bilan to'lash;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur ustav talablarini bajarish;
- Bank faoliyatiga aloqador ma'lumotlarni, shu jumladan bank aksiyadorlari tarkibidan chiqqandan so'ng 3 (uch) yil mobaynida sir saqlash;
- o'ziga tegishli ma'lumotlar o'zgarganda aksiyalari bo'yicha huquqlarini hisobga olish xizmatlari ko'rsatuvchi depozitariyga o'z vaqtida axborot berish. O'ziga tegishli ma'lumotlardagi

o'zgarishlar haqida o'z vaqtida xabar bermagan hollarda ro'yxatga oluvchi vazifalarini bajaruvchi qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi va o'zining aksiyalari bo'yicha huquqlarini hisobga olish xizmatlari ko'rsatuvchi depozitariy aksiyadorga etkazilgan zararlar uchun javobgar bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur ustavda ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni amalga oshirish.

### **IX. Bank obligatsiyalari va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlari**

60. Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan obligatsiya va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini joylashtirish huquqiga ega.

61. Bank tomonidan obligatsiya va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini joylashtirish Bank Kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda obligatsiyalarni joylashtirish tartibi, shartlari va muddatlari, ularni to'lashning shakli va boshqa shartlari, agar obligatsiyalarni chiqarish qo'shimcha kafolat, bank kafolati yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ta'minlangan bo'lsa, qo'shimcha ta'minot bergan shaxs to'g'risidagi va ta'minlash shartlari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

62. Bank tomonidan obligatsiya va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra belgilanadi.

63. Ustav kapitalini to'ldirish yoki bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq zararlarni qoplash uchun obligatsiyalar chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

64. Bank tomonidan chiqarilgan barcha obligatsiyalarning nominal qiymati o'z kapitalining miqdoridan oshmasligi kerak.

65. Obligatsiya uning olingan vaqtdan qat'i nazar, bir chiqarilish ichida huquqlarni amalga oshirishda teng hajmlar va muddatlarga ega.

66. Bank o'zining muayyan mulki kafolati bilan ta'minlangan yoki qo'shimcha ta'minotga ega obligatsiyalarni va ta'minlanmagan obligatsiyalarni chiqarish huquqiga ega.

67. Bank O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan obligatsiyalar va bank aksiyalariga ayirboshlanadigan boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish huquqiga ega. Obligatsiyalar va boshqa aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish Bank Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

68. Bank ma'lum turdagi e'lon qilingan aksiyalari miqdori bunday qimmatli qog'ozlar sotib olish huquqini beradigan bu turdagi aksiyalar miqdoridan kam bo'lsa, bank aksiyalariga ayirboshlanadigan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish huquqiga ega emas.

### **X. Bank tomonidan aksiya va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning joylashtirilishi**

69. Bank O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunchiligida belgilangan talablarga binoan obuna bo'lish va ayirboshlash orqali qo'shimcha aksiyalar va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni amalga oshirish huquqiga ega.

70. Aksiyalar va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlar uchun to'lov faqat pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi.

71. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan, aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Bankning qo'shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish paytida ularga haq to'lash ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanganidan kam bo'lmagan narx bo'yicha amalga oshiriladi.

72. Bank quyidagi hollarda aksiyalar va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish huquqiga ega:

- qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish (reklamadan foydalanib soni cheklanmagan sarmoyadorlar o'rtasida ochiq obuna), bunda aksiyalar ochiq obunasi faqat qimmatli qog'ozlarning birja bozorida va uyushgan birjadan tashqari bozorida o'tkaziladi;

- bankning aksiyalarga ayriboshlanadigan boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini aksiyalarga ayriboshlash.

73. Aksiyalarga ayriboshlanadigan aksiyalar va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish tartibi Bank Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

74. Bankning aksiyalar va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni yopiq obuna bo'yicha joylashtirish to'g'risidagi qarori Bank Kuzatuv kengashi da yakdillik bilan qabul qilinadi.

75. Bank tomonidan qo'shimcha aksiyalar mazkur ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtirilishi mumkin.

76. Bank qo'shimcha aksiyalarning mazkur ustavda e'lon qilingan aksiyalar uchun belgilanmagan turlarini joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega emas.

77. Bankning qo'shimcha aksiyalarini e'lon qilingan aksiyalarning bank tomonidan joylashtirilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini bu aksiyalarga ayriboshlash uchun zarur miqdori chegaralarida joylashtirish faqatgina shunday ayriboshlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

78. Bank tomonidan muayyan turdagi aksiyalarga ayriboshlanadigan qimmatli qog'ozlar joylashtirilganda bu turdagi e'lon qilingan aksiyalarning miqdori mazkur qimmatli qog'ozlarni muomalada bo'lish muddati mobaynida ayriboshlash uchun zarur bo'lgan miqdoridan kam bo'lmasligi lozim.

79. Bank tomonidan qo'shimcha aksiyalarni ularga aksiyalarga ayriboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ayriboshlash orqali joylashtirilishi Bank Kuzatuv kengashining aksiyalarga ayriboshlanadigan shunday qimmatli qog'ozlarni joylashtirish to'g'risidagi qarorida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

80. Bankning obuna orqali joylashtiriladigan qo'shimcha aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlari ular to'liq to'langandagina amalga oshiriladi.

81. Bank aksiyadori, boshqa aksiyadorlar va bankning roziligisiz unga tegishli aksiyalarni sotish yoki ularga bo'lgan huquqini boshqacha tarzda birovga berishi mumkin.

82. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan hollarda bank aksiyalarini sotib olish uchun sarmoyadorlar (aksiyadorlar) Markaziy bankning mazkur bank aksiyalariga egalik qilishga oldindan roziligini olishi lozim.

83. Sotish va sotib olish hamda bank aksiyalariga egalik qilish huquqini ko'zda tutadigan boshqa bitimlarni amalga oshirish va qayd qilish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan talablarga binoan amalga oshiriladi.

84. Bank Markaziy bankning oldindan roziligi bilan joylashtirilgan aksiyalarini keyinchalik qayta sotish maqsadida sotib olish huquqiga ega. Bank tasarrufiga o'tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlarni sanab chiqishda hisobga olinmaydi, ular bo'yicha dividendlar hisoblab chiqarilmaydi. Bunday aksiyalar tasarrufiga o'tgan paytdan e'tiboran bir yildan kechiktirmay realizatsiya qilinishi kerak.

85. Aksiyalarni sotib olish to'g'risidagi qarorda sotib olinadigan aksiyalarning turlari bank sotib oladigan har bir turdagi aksiyaning soni, sotib olish narxi, aksiyalar haqini to'lash shakli va muddati, shuningdek aksiyalar qancha muddatda sotib olinishi belgilab qo'yilishi lozim.

86. Aksiyalarni sotib olish vaqtida ularga pul bilan haq to'lanadi. Aksiyalarni sotib olish muddati 10 kundan kam bo'lmasligi kerak. Bank tomonidan oddiy aksiyalarni sotib olish narxi bozor bahosiga muvofiq belgilanadi.

87. Sotib olish to'g'risida qaror qabul qilingan muayyan turlardagi aksiyalarning egasi bo'lmish har bir aksiyador ko'rsatib o'tilgan aksiyalarni sotishga haqlidir, bank esa ularni sotib

olishi shart. Agar bankning sotib olishi to'g'risida ariza tushgan aksiyalarning umumiy soni (ya'ni muomalada qolgan aksiyalarning nominal bahosi ustav kapitalining minimal miqdoridan past bo'lsa) bank sotib olishi mumkin bo'lgan aksiyalarning sonidan ortib ketsa, aksiyadorlardan arizada ko'rsatilgan talablarga mutanosib ravishda aksiyalar sotib olinadi.

88. Aksiyalar sotib olinadigan muddat boshlanishiga kechi bilan 10 kun qolganda bank muayyan turdagi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarni bank tomonidan aksiyalar olinishi to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va o'z rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali xabardor etishi shart. Xabarnomada ushbu ustavning 85-bandida ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar bo'lishi lozim.

89. Bank tomonidan joylashtirilgan aksiya va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni sotib olish to'g'risidagi qaror Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasi 2-qismida ko'zda tutilgan hol bundan mustasno.

90. Bank quyidagi hollarda o'zi tomondan joylashtirilgan oddiy aksiyalarni sotib olish huquqiga ega emas:

- Bankning butun ustav kapitali batamom to'langunga qadar;
- agar oddiy aksiyalarni sotib olish vaqtiga kelib bankda bankrotlik belgilari bo'lsa yoki bunday belgilar u aksiyalarni sotib olganligi natijasida paydo bo'lsa;
- agar oddiy aksiyalarni sotib olish vaqtiga kelib bankka qarashli sof aktivlarning qiymati uning ustav kapitalidan, zaxira fondidan va joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning ustavda belgilangan tugatish qiymatining nominal qiymatidan ortiq qismidan kam bo'lsa yoxud aksiyalarni sotib olish natijasida ularning miqdoridan kamayib ketsa, oddiy aksiyalarni sotib olishga haqli emas.
- Markaziy bankning oldindan ruxsatisiz.

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 38-moddasiga muvofiq qaytarib sotib olish to'g'risida talab qo'yilgan hamma aksiyalar qaytarib sotib olinmaguncha bank joylashtirilgan aksiyalarni sotib olishga haqli emas.

91. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq bank joylashtirilgan aksiyalarni maydalash huquqiga ega bo'lib, buning natijasida bankning bir aksiyasi xuddi shu turdagi ikki yoki undan ortiq aksiyaga ayirboshlanadi. Bunda Bank ustaviga bankning e'lon qilingan aksiyalari nominal qiymati va soniga doir tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

## **XI. Foydani taqsimlash, zararni qoplash, zaxira va boshqa fondlar tuzish**

92. Bank sof foydani taqsimlash bo'yicha to'liq xo'jalik mustaqilligiga ega.

93. Bankning sof foydasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda aniqlanadi. Sof foydasidan tegishli soliqlar, byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga boshqa majburiy to'lovlar amalga oshiriladi. Bankning sof foydasi (soliqlarni to'lagandan so'ng) bank ixtiyorida qoladi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra zaxiralarga o'tkaziladi, bankning boshqa fondlarini shakllantirishga yo'naltiriladi yoki dividendlar ko'rinishida aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga binoan boshqa maqsadlarda ishlatiladi.

Foydani taqsimlash tartibi, zaxira va boshqa fondlarni shakllantirish me'yorlari, dividendlarni to'lash aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Bank Kuzatuv kengashi bankning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish tartibini belgilaydi.

94. Dividendlar foydaning soliqlar va majburiy to'lovlar to'langanidan, qayta investitsiya amalga oshirilganidan so'ng bank ixtiyorida qoladigan, aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi kerak bo'lgan qismi.

95. Bank moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga (e'lon qilishga) haqlidir.

Bankning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra

dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugaganidan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

Bank aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

96.Dividendlar bank tasarrufida qoladigan sof foydadan va (yoki) o'tgan yilning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

97.Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar (yilning har bir choragi, yarim yilligi, yilligi bo'yicha) to'lash, dividendning miqdori xamda uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Bank Kuzatuv kengashining tavsiyasiga ko'ra, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Bank Kuzatuv kengashi tavsiya etgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

98.Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida, shuningdek, bank ustavida dividend miqdori belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq bo'lmagan miqdorda dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilish huquqiga ega.

99.Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugaydigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

100.Dividendlar to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. Dividendlar to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 kundan kech bo'lmasligi kerak.

101. Egasi yoki uning qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra bank ixtiyorida qoladi.

102.Dividendlarni e'lon qilish to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan bank aksiyadorlari reestrinda qayd etilgan aksiyadorlar dividend olish huquqiga ega.

103.Bank quyidagi aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risidagi qaror (e'lon) qabul qilish huquqiga ega emas:

- Bank ustav kapitalining hammasi to'lab bo'linguncha;
- agar dividendlar to'lanadigan paytda bankda to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik); belgilari bo'lsa yoki dividendlar to'lash natijasida bankda shunday belgilar paydo bo'lsa;
- bank sof aktivlarining qiymati uning ustav va zaxira fondlari summasidan kam bo'lsa;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan iqtisodiy me'yorlarni buzish, shuningdek, agar dividendlar to'lash natijasida iqtisodiy normativlar buzilib, buni oqibatida omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga jiddiy xavf tug'dirish mumkin bo'lsa;
- bankka nisbatan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining dividendlar to'lashni to'xtatish to'g'risida talabi mavjud bo'lsa.

104.Bank dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi. Bank to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining va bankning rasmiy veb-saytlarida e'lon qiladi.

105.Bank zararlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda bankning sof foydasi hisobidan qoplanadi. Bankning sof foydasi zararlarni qoplash uchun etarli bo'lmaganida, ular zaxira fondi mablag'lari hisobidan qoplanadi.

106.Zaxira fondidan jamiyatning zararlarini qoplash, obligatsiyalarni muomiladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va aksiyalarni qaytarib sotib olish uchun foydalaniladi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

107.Bank ustav kapitalining 15 (O'n besh) foizi miqdorida zaxira fondi (umumiy maqsadlar zaxira fondi) tashkil etiladi. Zaxira fondiga o'tkaziladigan yillik ajratmalar miqdori aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida belgilanadi, bu ko'rsatkich bank sof foydasining kamida 5

(Besh) foizini tashkil etishi lozim.

108. Bankning foydasi hisobidan va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan bankda boshqa fondlar tashkil etilishi mumkin.

109. Bank Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda shubhali va harakatsiz aktivlarga (qarzarlar) qarshi zaxira fondlarini tashkil etadi, ularga o'tkaziladigan ajratmalar operatsion harajatlariga kiritiladi.

## **XII. Bankning kredit resurslari**

110. Bank quyidagilar hisobidan kredit resurslarini shakllantiradi:

- Bankning o'z mablag'lari (sotib olingan asosiy fondlar bahosi va boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitalida qatnashish hissasiga qo'yilmalar va boshqa mablag'lar bundan mustasno);

- depozit shaklida jalb qilingan mablag'lar bilan birga yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarida turgan mablag'lari;

- jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha va muayyan muddatga jalb qilingan omonatlari;

- obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirishdan jalb qilingan pul mablag'lari;

- boshqa banklardan olingan kreditlar.

111. Kredit ajratish uchun resurslar sifatida bankning moliya yili mobaynida taqsimlanmagan foydasi ishlatilishi mumkin.

## **XIII. Mijozlar manfaatlarini ta'minlash**

112. Bank mijozlari va vakillik aloqalari o'rnatilgan yuridik shaxslar tomonidan ishonib topshirilgan pul mablag'lari va boshqa boyliklarning saqlanishini ta'minlaydi. Ularning saqlanishi bankning amaldagi qonunchilik va mazkur ustavga muvofiq barcha ko'char va ko'chmas mulklari, tashkil etilgan fondlari va zaxiralari hamda Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda bank tomonidan uning moliyaviy axvolining barqarorligi va likvidligini ta'minlashga doir belgilangan choralar bilan ta'minlanadi.

113. Bank Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan, O'zbekiston Respublikasining banklari uchun amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan majburiy me'yorlar yuzasidan har doim o'z balansining tuzilmasini boshqarish orqali o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni o'z vaqtida to'liq bajarishga tayyorlikni ta'minlaydi.

114. Bank, Markaziy bankda u tomondan belgilangan miqdor va tartibda jalb qilingan pul mablag'larining bir qismini majburiy zaxiralarda saqlaydi hamda Markaziy bank qoidalari va me'yorlariga muvofiq sug'urta fondlari va zaxiralarini shakllantiradi.

115. Bank hisobvaraqlarida yuridik yoki jismoniy shaxslarning omonatlarda yoki saqlash uchun qo'yilgan pul mablag'lari va boshqa boyliklari faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan hollar va tartibda band solinishi yoki unduruvga qaratilishi mumkin.

116. Bank o'z mijozlari hisobvaraqlari, omonatlari va vakillik aloqalari amaliyotlarini sir saqlanishini kafolatlaydi. Bankning barcha xodimlari bankning mijozlari va vakillik aloqalari o'rnatilgan yuridik shaxslarning amaliyotlari, hisobvaraqlar va omonatlariga oid ma'lumotlarni sir saqlashi lozim.

117. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonunida ko'zda tutilgan tartib va hollarda mijozlarning o'ziga, ularning to'la huquqli vakillari hamda boshqa shaxslarga beriladi.

Jinoiy faoliyat orqali olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq, pul mablag'lari yoki boshqa mulk bilan amaliyotlar to'g'risidagi bank sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ko'zda tutilgan hollar va tartibda maxsus vakolatli davlat tashkilotlariga etkaziladi.

118. Bankning barcha mansabdor shaxslari va xizmatchilari, uning aksiyadorlari va ularning vakillari, auditorlar bank sirini qat'iy saqlashlari lozim.

Bank sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlar amaldagi qonunchilikka asosan bank boshqaruvi tomonidan belgilanadi.

119. Bank faoliyati jarayonida yaratilgan, olingan va to'plangan ma'lumotlar hamda bankda qog'oz shaklida, magnitli saqlagichlarda va boshqa tusdagi Bank boshqaruvi tomonidan tijorat siriga kiritilgan axborotlarni har qanday shaklda Bank boshqaruvi yoki Bank boshqaruvi tomonidan huquq berilgan bankning mansabdor shaxslarining roziligisiz sotish, berish, nusxa ko'chirish, ko'paytirish, almashtirish yoki boshqacha tarqatish va adadlashga yo'l qo'yilmaydi.

Tijorat va Bank siriga oid axborot bilan ishlash tartibi va u bilan ishlash tartibi buzilganligi uchun javobgarlik Bank boshqaruvi tomonidan belgilanadi.

#### XIV. Bank hisobi va hisoboti

120. Bankda buxgalteriya hisobi va hujjatlar aylanishi Markaziy bank tomonidan va O'zbekiston Respublikasining boshqa huquqiy hujjatlarida belgilangan qoidalarga binoan amalga oshiriladi.

Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda statistik va boshqa hisobotlarni olib boradi.

121. Bank tegishli tashkilotlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek, bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga va boshqalarga taqdim etiladigan bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

122. Bank O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilik va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida belgilangan muddat va tartibda bank tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarga aloqador axborotlarni oshkor qiladi.

123. Bank faoliyatining natijalari oylik, choraklik va yillik buxgalteriya balanslari, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotlar hamda belgilangan muddatlarda Markaziy bankga taqdim etiladigan hisobotlarda aks ettiriladi.

Bankning choraklik va yillik hisobotlari qonunchilikda belgilangan muddatlarda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat tashkilotiga ham taqdim etiladi.

124. Bankning foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot (moliyaviy faoliyat natijalari to'g'risidagi hisobot) yillik buxgalteriya balansi va hisoboti auditorlik tekshiruvidan so'ng bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi va qonunchilikda belgilangan muddatlarda yillik hisobot tarkibida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi lozim.

125. Bank o'z faoliyatiga oid muhim dalillar to'g'risidagi axborotlar hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi tomonidan qo'yiladigan talablarga muvofiq e'lon qilinishi belgilangan boshqa axborotlarni e'lon qiladi.

126. Bank boshqaruvi amaldagi qonunchilikka binoan yillik hisobotda mavjud bo'lgan axborotning to'g'riligi uchun javobgar hisoblanadi.

127. Bankning moliyaviy yili 1 yanvardan boshlanib, 31 dekabrda tugaydi.

128. Bank davlat, ijtimoiy, iqtisodiy va soliq siyosatini amalga oshirish uchun bankdagi mavjud hujjatlarni va shaxsiy tarkibga oid hujjatlarni uzoq muddat davomida saqlash va foydalanishni (yuridik va jismoniy shaxslar talabiga ko'ra ma'lumotlarni berish) ta'minlaydi.

Hujjatlar tarkibi va ularni saqlash muddatlari belgilangan tartibda kelishilgan ro'yxatga ko'ra belgilanadi.

Hujjatlarni yo'q qilishga faqat ularni saqlashning me'yoriy muddatlari o'tgani tekshirilgandan so'ng ro'yxatdan chiqarish bo'yicha kelishilgan va rasmiylashtirilgan dalolatnomalar asosida ruxsat etiladi.

#### XV. Bankning boshqaruv organlari

129. Quyidagilar bank boshqaruvi organlari hisoblanadi:

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
- Bank Kuzatuv kengashi;
- Bank boshqaruvi.

130. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Bank boshqaruvining oliy organi hisoblanadi.

131. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalardan tashqari bank faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi oralig'i davrida faoliyat yurituvchi Bank Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

132. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki Bank Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan masalalardan tashqari bank faoliyatiga tezkor rahbarlik qilish bankning kollegial ijrochi organi - Bank boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi.

## XVI. Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi

133. Bank har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Bank Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasini saylash, bankning yillik hisoboti, buxgalteriya balanslari, shu jumladan, foyda va zararlari to'g'risidagi hisobot, moliya yili natijalariga ko'ra bank foyda va zararlarini taqsimlash to'g'risidagi hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiradigan boshqa masalalar ko'rib chiqiladi.

134. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilish hisoblanadi.

135. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana va uni o'tkazish tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallar (axborotlar) ro'yxatini Bank Kuzatuv kengashi belgilaydi.

136. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- bank Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki bankning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;
- bankni qayta tashkil etish;
- bankni tugatish, tugatuvchini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- Bank Kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;
- bank ustav kapitalini oshirish maqsadida e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- bank ustav kapitalini kamaytirish;
- o'z aksiyalarini olish;
- bank taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish, shuningdek, taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;
- sanoq komissiyasining miqdor va shaxsiy tarkibini tasdiqlash;
- bankning yillik hisobotlarini tasdiqlash;
- bankning foyda va zararlarini taqsimlash;
- "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi", "Bank Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi, "Bank boshqaruvi to'g'risida"gi Nizomlarni tasdiqlash;
- umumiy yig'ilish reglamentini tasdiqlash;
- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
- bankning zaxira va boshqa fondlarini tashkil etish;

- Bank Kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, bankni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Bank Kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 84-moddasiga binoan yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Bank Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzishni hal qilish;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 88-moddasiga binoan bankning affillangan shaxsi bilan bitimlar tuzish;

- mazkur Ustav, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlarda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni hal etish.

137. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun bank ijroiya organiga berilishi mumkin emas.

138. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlariga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Bank Kuzatuv kengashiga berilishi mumkin emas, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va ushbu Ustavda ko'zda tutilgan masalalar bundan mustasno.

139. Quyidagilar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega:

- bankning oddiy aksiyalarining egalari bo'lgan aksiyadorlar;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan hollarda Bank imtiyozli aksiyalarining egalari bo'lgan aksiyadorlar.

Aksiya egasi bo'lgan aksiyadorga ovozga qo'yilgan masalani hal etishda ovoz berish huquqini beradigan oddiy aksiya yoki, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan hollarda, imtiyozli aksiya ovoz beruvchi aksiyasi hisoblanadi.

140. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori, agar Qonunlarda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, bankning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

141. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan, hal qilish chog'ida bankning oddiy va imtiyozli aksiyalarining egalari bo'lgan aksiyadorlar ovoz huquqiga ega bo'ladigan masala yuzasidan ovozlarni sanab chiqish, ovoz beruvchi aksiyalarning barchasi bo'yicha birgalikda amalga oshiriladi.

142. Mazkur Ustavning 136-bandining ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, ettinchi, o'n ikkinchi, o'n sakkizinchi va o'n to'qqizinchi xatboshilarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarga ega bo'lgan aksiyadorlarning to'rtinchi uch qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Bank Kuzatuv kengashi raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Bank Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek, kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga haqli emas.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorlar, shuningdek, ovoz berish yakunlari bu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran 30 (O'ttiz) kun ichida aksiyadorlarga etkaziladi.

143. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 3 (Uch) ish kuni oldin shakllantirilgan bank aksiyadorlarining reestriga qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

Aksiyadorning talabiga binoan bank aksiyadorga uning aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan bank aksiyadorlari reestriga kiritilganligi to'g'risidagi xabarnomani taqdim etishi shart.

Bank aksiyadorlarining shakllantirilgan reestriga o'zgartirishlar mazkur reestr tuzilgan

sanada unga kiritilmay qolgan shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan yoki reestri tuzishda yo'l qo'yilgan xatolar tuzatilgan taqdirdagina qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kiritilishi mumkin.

144. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida aksiyadorlarga xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 7 kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan 30 kun oldin bankning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, shuningdek, aksiyadorlarga elektron pochta orqali xabar yuborish orqali amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida aksiyadorlarga xabar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan sanada aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida aksiyadorlarga xabar qilish uchun shakllantirilgan bank aksiyadorlarining reestriga asosan yuboriladi.

145. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- bankning nomi va joylashgan eri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;
- umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;
- bank aksiyadorlari reestri tuziladigan sana;
- umumiy yig'ilishning kun tartibiga kiritilgan masalalar;
- umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etilishi

lozim bo'lgan axborot bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotlarga bankning yillik hisoboti, bankning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan bank taftish komissiyasining (taftishchisining) va auditorlik tashkilotining xulosasi, Bank Kuzatuv kengashi hamda taftish komissiyasi a'zolariga (taftishchiligiga) nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, bank ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasi yoki bankning yangi tahrirdagi Ustavi loyihasi kiradi.

146. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga ega bo'lgan bank aksiyadorlari (aksiyadori) bankning moliya yili tugaganidan keyin uzog'i bilan 30 (O'ttiz) kun ichida, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Bank Kuzatuv kengashi va bank taftish komissiyasiga miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega.

Aksiyadorlar (aksiyador) Bank Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran 3 (Uch) ish kunidan kechiktirmay o'zgartirishlar kiritishga haqli.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masalani qo'yish sabablarini, masalani taklif etayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) nomini, unga tegishli aksiyalarning soni va turini ko'rsatgan holda yozma ravishda kiritiladi.

147. Bank Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga nomzodlar ko'rsatish, shu jumladan o'zining nomzodini ko'rsatish to'g'risida taklif kiritilganda nomzodning ismi, agarda nomzod bank aksiyadori bo'lsa, unga tegishli aksiyalarning soni va turi, shuningdek, nomzodni ko'rsatgan aksiyadorlarning ismi, ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

148. Bank Kuzatuv kengashi tushgan takliflarni ko'rib chiqishi hamda ushbu ustavning 146 bandida belgilangan muddat tugaganidan so'ng uzog'i bilan 10 (O'n) kun ichida ularni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish to'g'risida yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qilishi shart. Aksiyador (aksiyadorlar) kiritgan masala aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga, shuningdek ko'rsatilgan nomzodlar Bank Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga saylov yuzasidan ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi shart, quyidagi hollar bundan mustasno:

- aksiyador (aksiyadorlar) ushbu Ustavning 146-bandida belgilangan muddatga rioya etmagan bo'lsa;
- aksiyador (aksiyadorlar) ushbu Ustavning 146-bandida nazarda tutilgan miqdordagi bank ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;

- mazkur Ustavni 146-bandining uchinchi qismida nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;

- takliflar O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining talablariga muvofiq bo'lmasa.

149. Bank Kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Bank Kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga saylov yuzasidan ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori ushbu masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorga (aksiyadorlarga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 3 (Uch) ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda Bank Kuzatuv kengashi, mazkur Ustavning 150-bandida nazarda tutilgan hollarda esa, umumiy yig'ilishni chaqiruvchi shaxslar quyidagilarni belgilaydi:

- umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni;
- umumiy yig'ilishning kun tartibini;
- umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar qilish tartibini;
- umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun bank aksiyadorlari reestri shakllantiriladigan sanani;
- umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etiladigan axborotlar ro'yxatini;
- ovoz berish byulletenining shakli va matnini.

Aniq masala qo'yilishini aks ettirmaydigan ta'riflarning (shu jumladan, "turli masalalar", "boshqa masalalar", "o'zga masalalar" va hokazolarning) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 10 (O'n) kundan kam va 30 (O'ttiz) kundan ko'p belgilanishi mumkin emas.

150. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan uning o'z tashabbusiga binoan, bank taftish komissiyasi yozma talabiga ko'ra, shuningdek, talab taqdim etilgan sanada bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabi bilan o'tkaziladi.

Bank taftish komissiyasining yoki bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga binoan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish haqidagi talab taqdim etilgan kundan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay Bank Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sababini ko'rsatgan holda ta'riflab berilishi lozim.

Bank Kuzatuv kengashi bank taftish komissiyasining yoki bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (Besh) foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga binoan chaqiriladigan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartishlar kiritish huquqiga ega emas.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish talabi aksiyadordan (aksiyadorlardan) chiqqan taqdirda bu talabda umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) ismi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish talabnomasi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

Bank taftish komissiyasi yoki bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga ega bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida talabnomasi taqdim etgan sanadan boshlab 10 (o'n) kun ichida Bank Kuzatuv kengashi

aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi lozim.

Bank taftish komissiyasining (taftishchining) yoki bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga binoan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin:

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) talabnoma kiritilgan kunga kelib 5 (besh) foiz bank ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;

- bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham uning vakolatlariga kirmasa;

- kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq bo'lmasa.

Bank Kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi qarori yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish haqidagi asoslantirilgan qarori qabul qilingan paytdan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay yig'ilish chaqirishni talab qilgan shaxslarga yuboriladi.

Bank Kuzatuv kengashi belgilangan muddat ichida aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilmagan bo'lsa yoki uni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilgan bo'lsa, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin. Bunday hollarda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq harajatlar aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga binoan bankning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

151. Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Bank Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Sanoq komissiyasi tarkibi kamida 3 (uch) kishidan iborat bo'lishi kerak. Sanoq komissiyasi tarkibiga bank kengashining a'zolari, taftish komissiyasining a'zolari, kollegial ijroiya organi a'zolari, yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi, shuningdek, boshqaruvchi tashkilot yoki boshqaruvchi, shu bilan birga ana shu lavozimlarga nomzodi ko'rsatilgan shaxslar kiritilishi mumkin emas.

Sanoq komissiyasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishida kvorum bor yoki yo'qligini aniqlaydi, aksiyadorlar (ularning vakillari) umumiy yig'ilishda ovoz berish huquqlarini amalga oshirishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalar bo'yicha tushuntirishlar beradi, ovozga qo'yiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi, ovoz berishning belgilangan tartibi va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqlarini ta'minlaydi, ovozlarni sanab chiqadi va ovoz berish yakunini chiqaradi, ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi, ovoz berish byulletenlarini arxivga topshiradi.

152. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish tamom bo'lgan paytga kelib, bankning tarqatilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'piga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorum to'plagan) hisoblanadi.

153. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

O'tkazilmay qolgan yig'ilish o'rniga aksiyadorlarning takroriy chaqirilgan umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish tugagan paytga kelib, bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizdan ko'prok ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatga olingan bo'lsa, bu umumiy yig'ilish vakolatli hisoblanadi.

Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabar qilish ushbu Ustavning 144-bandida nazarda tutilgan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

Kvorum bo'lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi 20 (yigirma) kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestriga muvofiq aniqlanadi.

154. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish "bankning ovoz beruvchi bitta aksiyasi-bitta ovoz" qoidasiga muvofiq o'tkaziladi, Bank Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari va ushbu Ustavda nazarda tutilgan boshqa hollar bundan mustasno.

155. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali amalga oshiriladi.

Ovoz berish byulletenlarining shakli va matni Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ovoz berish byulleteni umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan aksiyadorga (uning vakiliga) beriladi.

Ovoz berish byulletenida: bankning to'liq nomi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi, vaqti va joyi, ovoz berishga qo'yilgan har bir masalaning ta'rifi va uni ko'rib chiqish navbati, ovoz berishga qo'yilgan har bir masala bo'yicha "yoqlayman", "qarshiman" yoki "betarafman" degan mazmundagi so'zlar bilan ifodalangan ovoz berish variantlari, ovoz berish byulleteni aksiyador tomonidan imzolanishi lozimligi to'g'risidagi ko'rsatma aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Bank Kuzatuv kengashi yoki taftish komissiyasi a'zosini saylash to'g'risidagi masala yuzasidan ovoz berish o'tkazilgan taqdirda, ovoz berish byulletenida nomzod to'g'risidagi ma'lumot aks ettirilgan bo'lib, uning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilishi lozim.

156. Ovoz berish byulletenlari yordamida ovoz berilganida ovoz beruvchi qaysi masala bo'yicha extimol tutilgan ovoz berish variantlaridan faqat bittasini qoldirgan bo'lsa, o'sha masala bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinadi. Yuqoridagi talabni buzgan holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas deb topiladi va ulardagi masalalar bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi.

Agar ovoz berish byulletenida ovozga qo'yilgan bir necha masala aks ettirilgan bo'lsa, bir yoki bir necha masalaga nisbatan yuqorida ko'rsatilgan talabga rioya etilmaganligi byulletenning umuman haqiqiy emas deb hisoblanishiga sabab bo'lmaydi.

Sanoq komissiyasi ovoz berish yakunlari bo'yicha bayonnoma tuzadi. Bayonnoma jumladan, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kvorumi mavjudligi to'g'risidagi malumotlarni ham o'z ichiga oladi va sanoq komissiyasining a'zolari tomonidan imzolanadi.

Ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzilganidan va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi imzolanganidan keyin ovoz berish byulletenlari sanoq komissiyasi tomonidan muhrlanadi va saqlab qo'yish uchun arxivga topshiriladi.

Ovoz berish yakunlari to'g'risidagi bayonnoma aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasiga qo'shib qo'yilishi lozim.

Ovoz berish yakunlari aksiyadorlarning ovoz berish o'tkazilgan umumiy yig'ilishida o'qib eshittiriladi, shuningdek, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin ovoz berish yakunlari to'g'risidagi hisobotni e'lon qilish orqali aksiyadorlar e'tiboriga etkaziladi.

157. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin kechi bilan 10 (o'n) kun ichida ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- bankning ovoz beruvchi aksiyalariga ega bo'lgan aksiyadorlar ovozlarning umumiy soni;
- yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlar soni;
- yig'ilishning raisi va kotibi, yig'ilishning kun tartibi ko'rsatiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida nutqlarning asosiy mazmuni, ovozga

qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish natijalari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar aks ettirilishi lozim.

158. Agar aksiyador uzrli sabablarga ko'ra aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etmagan yoki bunday qaror qabul qilinishiga qarshi ovoz bergan bo'lsa, u aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va mazkur Ustav talablari buzilgan holda qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishga haqlidir.

159. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Bank Kuzatuv kengashi yoki yig'ilishni chaqirayotgan shaxslar tomonidan belgilangan sana, joy va vaqtda o'tkaziladi.

## XVII. Bank Kuzatuv kengashi

160. Bank Kuzatuv kengashi Bank faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga binoan Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davrda haq to'lanishi va (yoki) Bank Kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq harajatlari qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarning miqdori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilab qo'yiladi.

161. Bank Kuzatuv kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- bank aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, ushbu Ustavning 150-bandi ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun bank aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- bank Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki bankning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish byulletenlarining shakl va matnini tasdiqlash, kuzatuv kengashi tomonidan chaqirilmagan hollar bundan mustasno;
- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- aksiyalarning nominal qiymatini oshirish va qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'llari bilan Bankning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek Bank Ustaviga bankning ustav kapitalini ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorni va emissiya risolasini tasdiqlash hamda qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorga va emissiya risolasiga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish va ularning matnini tasdiqlash;
- aksiyalarni joylashtirish narxini belgilash;
- bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- qimmatli qog'ozlarni joylashtirish natijalari to'g'risidagi hisobotni tasdiqlash;
- qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda qimmatli qog'ozlarni joylashtirilishi va muomalasini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilish;
- bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
- bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;
- bankning ijroiya organi faoliyatiga daxldor har qanday hujjatdan erkin foydalanish va ijroiya organidan bank kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ularni olish. Olingan hujjatlardan Bank Kuzatuv kengashi va uning a'zolari faqat xizmat maqsadlarida foydalanishlari mumkin;
- bankning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini va boshqaruv a'zolarini saylash (tayinlash), ular vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;
- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida, auditorlik tashkilotini va uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash haqida qaror qabul qilish;
- korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;
- bank taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiya miqdori yuzasidan tavsiyalar berish;
- dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- bankning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;
- bankning ichki me'yoriy hujjatlarini, shu jumladan, kredit siyosati, emissiya siyosati, investitsiya siyosati, dividend siyosati, ichki audit xizmati va ichki nazoratning tashkil etish to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, amaldagi qonunchilik va mazkur Ustavda belgilangan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Bank boshqaruvi vakolatiga kiruvchi ichki hujjatlar bundan mustasno;
- bankning vakolatxonalarini ochish hamda filiallarini tashkil etish va ular faoliyatini to'xtatish;
- bank vakolatxonalari va filiallari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;
- bankning sho'ba va qaram korxonalarini tashkil etish;
- bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;
- bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish sanasiga bahosi 50 000 000 (Ellik million) so'mdan ortiq bo'lgan, bank aktivlari balans bahosining 15 (O'n besh) foizigachani tashkil qiladigan mol-mulkni olish va mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish bilan bog'liq hamda boshqa barcha ko'rinishdagi bitimlarni ma'qullash.
- kredit shartnomalari, lizing shartnomalari, faktoring shartnomalari, kafillik shartnomalari va kafolatlar berish bo'yicha limitlar belgilash. Agar ushbu bandda ko'rsatilgan shartnomalar summasi, ijroiya organi va/yoki filial rahbarlariga Bank Kuzatuv kengashi tomonidan belgilab berilgan limitdan ortiq bo'lgan hollarda, ushbu shartnomalar Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan ma'qullanadi;
- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;
- bankka aloqador shaxslarga kredit berish bo'yicha bitimlarni ma'qullash hamda bu shaxslar uchun kafolatlar berish;
- bitim summasidan qat'iy nazar bankning ko'chmas mulkini sotib olish, sotish, sotish imkoniyati, garovga qo'yish bilan bog'liq bitimlarni ma'qullash;
- bitim summasidan qat'iy nazar talab huquqidan voz kechish (sessiya) va qarzni ko'chirish bitimlarni ma'qullash;
- bitim summasidan qat'iy nazar boshqa tijorat tashkilotlarining aksiyalarini (ustav fondidagi xissalarni) sotib olish, sotish va sotish imkoniyati bilan bog'liq bitimlarni ma'qullash;
- sud, xo'jalik sudi, holislar sudida o'zaro kelishuv tuzish, da'voni to'liq yoki qisman tan olish yoki da'vo talablarini to'liq yoki qisman rad etish;
- taklif narhidan qat'iy nazar har qanday asos bo'yicha bankka tegishli imtiyozli huquqni amalga oshirish yoki uni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish;
- boshqa yuridik shaxslarning bankka tegishli aksiyalari bilan ovoz berishi. Ayni paytda bank boshqaruvi raisi faqat Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qaror bo'yicha ovoz berishi yoki ovoz berish uchun ishonchnoma berish huquqiga ega. Bank boshqaruvi raisi tomonidan ovoz berish uchun ishonchnoma berishda unga Bank Kuzatuv kengashining ovoz berish variantlarini belgilovchi tegishli qarorining nusxasi ilova qilinishi lozim.
- bank bosh buxgalterini lavozimiga tayinlash;

- ssuda va unga tenglashtirilgan qarzдорlikni ssudalar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun tashkil etilgan xazira hisobiga balansdan chiqarish, u etarli bo'lmaganda esa - hisobot yili zararlariga chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- bank qo'mitalarini tashkil etish va ular to'g'risidagi qarorlarni tasdiqlash;

- bankning ichki nazorati bilan bog'liq masalalarni hal etish;

- samarali ichki nazoratni tashkil etish va yuritish;

- har yili ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash;

- Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida ichki nazorat samaradorligini muntazam ko'rib chiqish va Bank boshqaruvi bilan birgalikda ichki nazoratni tashkil etish hamda uning samaradorligini oshirish bo'yicha choralarni muhokama qilish;

- bankning ijro organlari, ichki nazorat xizmati, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul shaxs (tuzilmali bo'linmalar, mas'ul xodim), bankning boshqa bo'linmalari, bank auditini o'tkazayotgan (o'tkazgan) auditorlik tashkiloti tomonidan tayyorlangan ichki nazorat tizimini tashkil etish bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqish;

- bankning ijro organlari tomonidan ichki nazorat xizmati, bank auditini o'tkazayotgan (o'tkazgan) auditorlik tashkiloti va nazorat organlari tavsiyalari va mulohazalarning tezkorlik bilan bajarilishini ta'minlovchi choralar qo'llash;

- ichki nazorat tizimi o'zgargan holatda uning bank faoliyati sharoitlari, ko'lami va harakteriga mutanosibligini o'z vaqtida baholash;

- korrupsiyaning oldini olish bo'yicha xamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshirish va tartibini tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining va bank Ustaviga muvofiq Bank Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni ham hal etish.

Qiymati bank umumiy kapitalining 15 (o'n besh) foizi va undan ortiq bo'lgan yirik bitimlar tuzishni va muddatni uzaytirishni ma'qullash.

162. Bank Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar hal qilish uchun bank ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

163. Bank Kuzatuv kengashining a'zolari O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va mazkur Ustavda nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan 3 (Uch) yil muddatga saylanadilar. Agar yillik aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi belgilangan muddatda o'tkazilmagan bo'lsa, Bank Kuzatuv kengashining yillik aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, chaqirish va o'tkazish bo'yicha vakolatlaridan tashqari boshqa vakolatlari bekor qilinadi.

Bank Kuzatuv kengashining son tarkibi kamida 5 (besh) kishidan iborat bo'ladi.

Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslarning qayta saylanishlari cheklanmaydi.

Bankning kollegial va yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organining a'zolari bank kengashiga saylanishlari, tayinlanishlari mumkin emas.

Bankda mexnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Bank Kuzatuv kengashi a'zolari bo'lishi mumkin emas.

Faqat jismoniy shaxs Bank Kuzatuv kengashi a'zosi bo'la oladi. Bank kengashi a'zosi bankning aksiyadori bo'lmasligi ham mumkin.

Bank Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Bank Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlar bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Aksiyador o'ziga tegishli aksiyalar bo'yicha ovozlarni Bank Kuzatuv kengashining bitta nomzodiga to'liq berishga yoki bir nechta nomzod o'rtasida taqsimlashga haqlidir.

Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining vakolatlari muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Agar bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishining taklif etilgan kun tartibiga Bank Kuzatuv kengashi barcha a'zolarining vakolatlarini muddatidan oldin bekor qilish masalasi kiritilgan bo'lsa, Bank Kuzatuv kengashi ("Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonunda nazarda tutilgan holatlarda boshqa shaxslar) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga Bank Kuzatuv kengashi barcha a'zolarining vakolatlarini muddatidan oldin bekor qilish to'g'risidagi masala bilan bir qatorda yangi Bank Kuzatuv kengashini saylash haqida masalani ham kiritadi. Bank Kuzatuv kengashining yangi tarkibi Bank Kuzatuv kengashining barcha azolarining vakolatlari muddatidan oldin bekor qilinishi to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi.

164. Bank Kuzatuv kengashining raisi Bank Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan Bank Kuzatuv kengashi a'zolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Bank Kuzatuv kengashi o'z raisini Bank Kuzatuv kengashi jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylash huquqiga ega.

Bank Kuzatuv kengashining raisi Bank Kuzatuv kengashiga rahbarlik qiladi uning ishini tashkil etadi, Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishlarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, yig'ilishda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishida raislik qiladi.

Bank Kuzatuv kengashining raisi yo'qligida uning vazifasini Bank Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri bajarib turadi.

Bank Kuzatuv kengashi oddiy ko'pchilik ovoz bilan bank kengashi kotibini saylaydi. Bank Kuzatuv kengashi istagan vaqtida Bank Kuzatuv kengashi kotibini qayta saylash huquqiga ega.

Bank Kuzatuv kengashi kotibi Bank Kuzatuv kengashi majlislarida bayonnomalarni to'g'ri tuzilishi uchun javob beradi va Bank Kuzatuv kengashi raisiga majlis chaqirish hamda o'tkazishda ko'maklashadi.

165. Bank Kuzatuv kengashining majlisi Bank Kuzatuv kengashi raisi tomonidan uning o'z tashabbusi bilan, Bank Kuzatuv kengashining a'zosi, taftish komissiyasining, bank boshqaruvi va boshqaruv raisining talabiga binoan chaqiriladi.

Majlis o'tkazish zarurati yuzaga kelganda, Bank Kuzatuv kengashi raisi majlis sanasini belgilaydi, Bank Kuzatuv kengashi kotibi bilan hamkorlikda Bank Kuzatuv kengashi a'zolarini majlis o'tkazilishi, kun tartibiga kiritilgan masalalardan xabardor qiladi, ularga majlis uchun axborotlarni etkazadi. Majlisni o'tkazishda Bank Kuzatuv kengashi kotibi majlis kun tartibini e'lon qiladi, kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish va muhokama olib boriladi. Bank Kuzatuv kengashi majlisini chaqirish va majlisni o'tkazish tartibi "Bank Kuzatuv kengashi to'g'risidagi" Nizomda belgilanadi.

Bank Kuzatuv kengashi majlisi O'zbekiston Respublikasining har bir mintaqasi va shahrida, uning chegarasidan tashqarida ham o'tkazilishi mumkin. Navbatdagi Bank Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish joyi Bank Kuzatuv kengashi raisi tomonidan belgilanadi.

166. Bank Kuzatuv kengashi majlisida Bank Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolar sonining kamida 75 (Yetmish besh) foizi ishtirok etsa, Bank Kuzatuv kengashi majlisi qonuniy kuchga (kvorumga) ega bo'ladi. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining soni 75 (Yetmish besh) foizdan kam bo'lib qolsa, Bank Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Bank Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning ana shunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagina qaror qabul qilishga haqlidir.

Bank Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda xozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bank Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Bank Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

Bank Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Bank Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bank Kuzatuv kengashining qarorini qabul qilishda Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lingan hollarda Bank Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi huquqga

egadir.

167. Mazkur Ustavning 161-bandi o'ninchi va o'ttiz beshinchi xatboshilarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qarorlar Bank Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan yakdillik bilan qabul qilinadi, bunda Bank Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqib ketgan a'zolari ovozi hisobga olinmaydi. Agar mazkur masalalar bo'yicha qaror Bank Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan hollarda Bank Kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq mazkur masalalar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hukmiga havola etiladi.

168. Bank Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- majlisda ishtirok etgan shaxslar;
- majlisning kun tartibi;
- ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
- qabul qilingan qarorlar.

Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Bank Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlisning bayonnomasi to'g'riligi uchun javobgardir.

169. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari aksiyadorlar va umuman bank manfaatlari yo'lida o'z majburiyatlarini vijdonan va ongli bajarishlari, Bank Kuzatuv kengashi majlisida faol ishtirok etishlari, o'zlarini manfaatlar ziddiyati yuzaga kelishiga olib keladigan yoki potensial olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlardan tiyishi, bank tomonidan bitimlar tuzishdan o'z manfaatdorligi haqida axborotlarni to'g'ri va to'liq hajmda yoritishi lozim.

### **XVIII. Bank Boshqaruvi va Boshqaruvi raisi**

170. Bankning joriy faoliyatini boshqarish (operativ boshqaruv) kollegial ijro organi - Bank boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Bank boshqaruviga Bank boshqaruvi raisi rahbarlik qiladi. Boshqaruvi raisi va bank boshqaruvi a'zolari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, ushbu Ustav, shuningdek, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Bank boshqaruvi to'g'risidagi" Nizom asosida amalga oshiradi. Bank boshqaruvi a'zolarining soni 5 (Besh) kishidan iborat.

171. Bank boshqaruvi a'zolari Bank Kuzatuv kengashi tomonidan 3 (Uch) yil muddatga saylanadi. Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari, shuningdek, boshqaruvi raisining o'rinbosarlari saylanishi mumkin. Bank Kuzatuv kengashi bank boshqaruvi va uning alohida a'zolari vakolatlarini muddatidan oldin bekor qilish masalasini ham hal etadi.

172. Bank boshqaruvi vakolatlariga quyidagi masalalar kiradi:

- bankning joriy faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish;
- bank Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari ijrosini ta'minlash;
- bankning kadrlar siyosatini belgilash va uning bajarilishini nazorat qilish;
- bankning filiallari, vakolatxonalar va boshqa ichki tuzilmali bo'linmalari faoliyatini boshqarish;
- yangi turdagi bank xizmatlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha qarorlar qabul qilinishini tashkil etish;
- bankning aktiv va passiv amaliyotlari bo'yicha foiz stavkalari hajmini operativ tartibga solish tartibini o'rnatish;
- bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilinishini ta'minlash;
- kredit berish, mablag'lar qo'yish yoki mijozlarning boshqa moliyalashtirishlariga taalluqli bank amaliyotlari bo'yicha qaror qabul qilish tartibini tasdiqlash;
- kreditlar berish va omonatlar jalb qilishning asosiy shartlarini belgilash;

- bank xodimlari sonini, uning tashkiliy tuzilmasini, uning filiallari, vakolatxonalari, amaliyot, bank xizmatlari ofislari, kredit-kassa va boshqa ichki bo'linmalari soni va tashkiliy tuzilmasini, shuningdek, bankni saqlash va rivojlantirish harajatlari hajmini belgilash;

- bank xatarlarini boshqarish va daromadlilikni maksimallashtirish siyosatini belgilash;

- kredit siyosatini ishlab chiqish va kredit mahsulotlarini taqdim etish bo'yicha faoliyatning kredit siyosati va kredit tavakkalchiligi strategiyalariga mutanosibliги ustidan nazoratni amalga oshirish, kredit xatarini aniqlash, monitoring va nazorat qilish tartibi va siyosatini ishlab chiqish;

- Bankda kredit jarayonini amalga oshirishning o'rnatilgan tartibidan og'ishlar aniqlanganda, ularni tartibga soluvchi qarorlar qabul qilish;

- Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari va bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxira shakllantirish maqsadida bankning kredit talablari klassifikatsiyasi to'g'risida qarorlar qabul qilish;

- bank tomonidan zararlar ko'rilishi va bankka daxldor shaxslar tomonidan bitimlar tuzilishi oqibatida likvidlik holatining yomonlashuvi ehtimolini cheklovchi kreditlash shartlari va limitlarini belgilash va tasdiqlash;

- bankning qo'shimcha ichki tuzilma va bo'linmalari ochish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

- amaliyot boshqarmasi, bank filiali, bank xizmatlari ofisi boshqaruvchisi, boshqaruvchi o'rinbosari, bosh buxgalteri, bosh buxgalter o'rinbosari lavozimiga nomzodlarni, shuningdek, bank vakolatxonasiga boshqaruvchilik lavozimiga nomzodni tasdiqlash;

- ichki nazorat bilan bog'liq masalalarni hal etish;

- bank Kuzatuv kengashi qarorlari bajarilishi, ichki nazorat xizmati tashkil etilishi va amalga oshirilishi bo'yicha bank siyosati strategiyasini amalga oshirish ustidan javobgarlik belgilanishi;

- bo'linmalar rahbarlari tomonidan ichki nazorat sohasida qoida va tartiblar ishlab chiqilishiga vakolatlar berilishi va ularning bajarilishi ustidan nazorat;

- bank faoliyatining ichki nazoratni amalga oshirish tartibini belgilovchi ichki me'yoriy hujjatlarga mutanosibliğini va bank faoliyati ko'lami va harakteriga nisbatan mazkur hujjatlar mazmunini baholash;

- ichki nazoratning aniq yo'nalishlari (shakllari, amalga oshirish usullari) uchun javobgar xodimlar va bo'linmalar majburiyatlarini taqsimlash;

- manfaatdor foydalanuvchilarga zarur ma'lumotlar etkazilishini ta'minlovchi axborot uzatish va ayirboshlashning samarali tizimini tashkil etish;

- ichki nazorat tizimi holatini tekshirish natijalarini ko'rib chiqish;

- ichki nazoratda aniqlangan kamchiliklar va qoida buzilish hollarini bartaraf etish ustidan nazorat tizimini tashkil etish va qo'llanilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash;

- bank ichki hujjatlarida belgilanmagan bank amaliyotlari va boshqa bitimlar, tartiblar va jarayonlarni amalga oshirish haqida, shuningdek, bank ichki hujjatlarida belgilangan bank amaliyotlari va boshqa bitimlar, tartiblar va jarayonlardan og'ishlar aniqlanganda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli qaror qabul qilish;

- qo'mitalar va bank filiallarining boshqa kollegial organlari to'g'risida Nizom va tartiblarni tasdiqlash;

- bank xizmatlari ofislari/markazlari, minibanklar, maxsus/universal kassalar ochish hamda ularning faoliyatini yolg'a qo'yish tartiblarini ishlab chiqish;

Bank Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatlariga kiritilmagan boshqa masalalarni hal etish.

173. Boshqaruv majlisi agar boshqaruv a'zolarining kamida 2/3 qismi ishtirok etsa, boshqaruv majlisi qonuniy huquqga ega hisoblanadi.

Boshqaruv majlisi oyiga kamida bir marta o'tkaziladi. Har bir boshqaruv a'zosi bir ovozga ega. Boshqaruv qarori ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Ovozlar soni teng bo'lib qolganda, boshqaruv raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Qabul qilingan qarordan norozilik yuzaga kelganda, boshqaruv a'zolari bu haqda Bank Kuzatuv kengashiga o'z fikrini bildirish huquqiga ega.

Boshqaruv majlisida bayonnoma tuziladi. Boshqaruv majlisi bayonnomalari boshqaruv raisi yoki boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari tomonidan imzolanadi.

Boshqaruv tarkibi, majlisni chaqirish va majlisni o'tkazish tartibi hamda boshqaruv faoliyatining boshqa masalalari ham "Bank boshqaruvi to'g'risidagi" Nizomda belgilanadi.

174. Boshqaruv raisi Markaziy bank bilan kelishilgan holda Bank Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimiga saylanadi (tayinlanadi). Boshqaruv raisi mehnat shartnomasini bekor qilish yoki uzaytirish (muddatidan oldin to'xtatish) imkoniyati haqida qaror qabul qilish bilan 3 (Uch) yil muddatga tayinlanadi.

175. Boshqaruv raisi:

- bank Ustaviga muvofiq ravishda uning faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- boshqaruv majlislariga raislik qiladi va uning ishini boshqaradi;
- bank boshqaruvi, Bank Kuzatuv kengashi va Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi vakolati doirasidagi masalalardan tashqari bankning joriy faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarni hal etadi;
- ishonchnomasiz bank nomidan va uning manfaatlari yuzasidan ish yuritadi;
- davlat va boshqaruv tashkilotlarida, sud, huquq-tartibot, moliyaviy, ma'muriy va boshqa tashkilotlarda, mulkchilikning barcha shaklidagi yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda bank nomidan qatnashadi va bankning manfaatlarini himoya qiladi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, mazkur Ustav va bankning ichki hujjatlariga binoan bank mulkini tasarruf etadi;
- 50 000 000 (Ellik million) so'mgacha bo'lgan mol-mulkni olish va mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish bilan bog'liq va boshqa barcha ko'rinishdagi shartnoma va bitimlarni, jumladan, mehnat shartnomalarni va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida, ish yuritishning umumiy tamoyillari va odatlari, xalqaro huquq, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, boshqa davlatlarning qonunchiligida ko'zda tutilgan bitimlarni tuzadi, kredit shartnomalari, lizing shartnomalari, kafillik shartnomalari va kafolatlar bundan mustasno;
- bankning, uning filiallari, vakolatxonalari, bank xizmatlari ofislari va boshqa ichki tuzilma bo'linmalarining shtat jadvalini tasdiqlaydi;
- bankning filiallari, vakolatxonalari, bank xizmatlari ofislari va boshqa ichki tuzilma bo'linmalari to'g'risidagi qoidalarni, shuningdek, bank xodimlari lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash tartibini belgilaydi;
- bankning ichki mehnat intizomi qoidalari, mehnatga haq to'lash va bank xodimlarini mukofotlash to'g'risidagi qarorlarni, shuningdek, mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi boshqa ichki me'yoriy hujjatlarni tasdiqlaydi, ularga bankning mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan rioya qilinishini ta'minlaydi;
- o'z vakolatlari doirasida bankning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar beradi;
- bank faoliyatining joriy masalalari bo'yicha, jumladan filiallar, vakolatxonalar, bank xizmatlari ofislari va boshqa ichki tuzilmali bo'linmalar ochish, ushbu bandning o'ninchi xatboshisida ko'rsatilgan qarorlarga o'zgartirishlar kiritish, bankning ichki tuzilmali bo'linmalari ish tartiblarini o'zgartirish bo'yicha buyruq va farmoyishlar chiqaradi;
- O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga muvofiq bank xodimlarini ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish va ishdan bo'shatishni amalga oshiradi, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini va rag'batlantirishni qo'llaydi;
- o'zining o'rinbosarlari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlaydi;
- bank nomidan ishonchnomalar beradi;
- bank amaliyotlari va bitimlar tuzishni amalga oshirishda alohida bank xodimlari va tuzilma bo'linmalarining majburiyatlari hamda ish tartibini belgilovchi bankning ichki tartiblarini tasdiqlaydi;
- bankda davlat sirini himoya qilish bo'yicha ishni tashkil qilish va sharoit yaratish, davlat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar bilan tanishish bo'yicha qonunchilik tomonidan o'rnatilgan cheklolarga rioya qilmaganligi uchun shaxsan javobgarlikka tortiladi;

- bank sirini tashkil etuvchi axborotlar ro'yxatini va ular bilan ishlash tartibini belgilaydi.  
176. Bank boshqaruvi raisining buyrug'iga asosan Bank boshqaruv raisi bo'lmagan davrda uning majburiyatlarini boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari yoki boshqaruv raisi o'rinbosari bajaradi.

Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari:

- boshqaruv raisi yo'qligida boshqaruv majlislariga raislik qiladi va uning ishini boshqaradi;
- bankning ichki hujjatlariga binoan zimmasiga yuklatilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi.

177. Bank boshqaruvi raisi va boshqaruv a'zolarining majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va ularning har biri bank bilan tuzgan o'zaro shartnomaga muvofiq belgilanadi. Bank boshqaruvi raisi bilan shartnoma bank nomidan Bank Kuzatuv kengashining raisi yoki Bank Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi.

### **XIX. Bank Kuzatuv kengashi, Boshqaruv raisi va bank boshqaruvi a'zolarining majburiyat va javobgarliklari**

178. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari, Boshqaruv raisi va bank boshqaruvi a'zolari amaliyotlar va mijozlarining omonatlari to'g'risidagi, shuningdek, ichki hujjatlarga binoan tijorat sirini tashkil etuvchi boshqa ma'lumotlarni sir saqlashi lozim.

179. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari, Boshqaruv raisi va bank boshqaruvi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda vijdonan va oqilona ravishda bank manfaatlarini yuzasidan ish tutishlari lozim.

Ular o'z majburiyatlarini tegishli bajaranmaganligi, o'zlarining aybdor harakatlari (harakatsizliklari) tufayli bankka etkazilgan zarar uchun, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida javobgarlikning boshqa asoslari belgilanmagan bo'lsa, bank oldida javobgarlikka tortiladi.

180. Bank yoki bankning joylashtirilgan oddiy aksiyalarining kamida 1 (Bir) foiziga ega aksiyador (aksiyadorlar) bankka etkazilgan zararni qoplash haqida Bank Kuzatuv kengashi a'zosi, bankning ijro organi (boshqaruv raisi), kollegial ijro organi (boshqaruv) a'zosiga nisbatan da'vo bilan sudga murojaat etish huquqiga egadir.

181. Bank boshqaruvi raisi O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining boshqa huquqiy hujjatlari va mazkur Ustavga muvofiq bankda buxgalteriya hisobini tashkil etish, holati va ishonchliligi uchun, tegishli tashkilotlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etish, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va ommaviy axborot vositalariga taqdim etiladigan bank faoliyatiga oid ma'lumotlar uchun javobgardir.

### **XX. Nazorat va ichki nazorat xizmatini tashkil etish**

182. Bankning moliya-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat 3 (Uch) yil muddatga uch kishidan kam bo'lmagan miqdorda bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan tayinlangan bank taftish komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

183. Taftish komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida Bank Kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishlari, ayni shu bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlashlari mumkin emas.

184. Bank taftish komissiyasi a'zolari amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni vijdonan bajarish uchun javobgardir.

185. Bank taftish komissiyasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish jarayonida bank taftish komissiyasi bankda biror shtat lavozimini egallamagan, shuningdek, Bank Kuzatuv kengashi, yoki bank boshqaruvi a'zosi bo'lmagan shaxslar orasidan ekspertlarni jalb qilishi mumkin. Jalb qilingan mutaxassislar harakati uchun javobgarlik taftish komissiyasi raisi zimmasiga yuklatiladi.

186. Bank taftish komissiyasi qonunchilik va bank faoliyatini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarga bank tomonidan rioya qilinishini, bank tomonidan yil davomida o'tkazilgan

hisob-kitob, kredit, valyuta va boshqa amaliyotlar, bank ichki nazorat tuzilmasini, kassa va mulklar holatini tekshiradi.

Bank taftish komissiyasining faoliyat tartibi bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Bank taftish komissiyasi to'g'risida"gi Nizom asosida belgilanadi.

Bank taftish komissiyasi o'tkazilgan taftish to'g'risida hisobot, shuningdek, tasdiqlash uchun taqdim etilgan buxgalteriya balansi va foyda hamda zararlar to'g'risidagi hisobotning bankdagi haqiqiy holatga mutanosibligiga oid xulosa taqdim etib, aniqlangan nomutanosibliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi.

187. Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha taftish komissiyasining tashabbusiga binoan, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Bank Kuzatuv kengashining qaroriga yoki bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga binoan amalga oshiriladi.

Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra Bankning taftish komissiyasi xulosa tuzadi, bu xulosada:

- Bankning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho;

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.

Taftish komissiyasi Bankda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek, qonun hujjatlarining va Bank ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda Bank Kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqadi. Ushbu bandning ikkinchi qismida ko'rsatilgan axborotni o'z ichiga olgan xulosa aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida eshitiladi.

188. Taftish natijalari bo'yicha bank yoki uning omonatchilari manfaatlariga tahdid yuzaga kelganda yoki mansabdor shaxslar tomonidan suiste'mollik hollari aniqlanganda, bank taftish komissiyasi navbatdan tashqari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilish huquqiga ega.

189. Tekshirishning hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan natijalari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Bank Kuzatuv kengashida ko'rib chiqish uchun, shuningdek, bankning ijro organiga chora qo'llash uchun taqdim etiladi.

190. Bank faoliyati ustidan nazorat Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.

191. Bank ichki audit xizmati bankning mustaqil tarkibiy tuzilmasi hisoblanib, bevosita Bank Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi.

Bank ichki auditi xizmatiga Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tayinlangan Ichki audit departamenti direktori rahbarlik qiladi.

Ichki audit xizmati bankning ijroiya organi va filiallari tomonidan qonun hujjatlariga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda to'g'ri aks ettirilishi ta'minlanishini, bank amaliyotlarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartiblariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek bankni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish va bu borada monitoring olib borish orqali bankning ijroiya organi va filiallari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

192. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, ushbu Ustav, shuningdek, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan "Ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiradi.

193. Yillik moliyaviy hisobotni tekshirish va tasdiqlash uchun bank har yili bank yoki uning aksiyadorlariga mulkiy manfaatlar bilan bog'liq bo'lmagan (tashqi audit), bunday tekshirishlarni amalga oshirish uchun litsenziyaga, shuningdek, banklarda auditorlik tekshiruvi o'tkazish huquqini beruvchi Markaziy bank sertifikatiga ega professional auditorlik tashkilotini jalb etadi. Auditorlik tashkiloti aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Bankning auditorlik tekshiruvi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq auditorlik tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Tashqi auditning maqsadi bankning moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy axborotlarining ishonchligi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga mosligiga nisbatan mustaqil auditorlar fikrini ob'yektiv ifodalashdan iborat. Audit o'tkazish jarayonida auditorlar bank ichki nazorati tuzilmasidagi kamchiliklar haqida alohida hisobot tuzishi lozim.

Bankning moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi yakuni bo'yicha bank taftish komissiyasi va bankning auditorlik tashkiloti tomonidan tuzilgan xulosalarda quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi lozim:

- bankning moliyaviy hisoboti ishonchligi;
- bank tomondan Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan majburiy normativlarning bajarilishi;
- bankni boshqarish sifati;
- ichki nazorat va amaldagi qonunchilik hamda mazkur Ustavda belgilangan ichki nazorat ahvoli va boshqa qoidalar.

Auditorlik xulosaning nusxasi amaldagi qonunchilikda o'rnatilgan tartibda Markaziy bankga hamda Davlat soliq idorasiga taqdim etiladi.

194. Bankning barcha xodimlari tomonidan o'z xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida qonunchilik, me'yoriy hujjatlar talablari, Markaziy bank ko'rsatmalari, boshqa tartibga soluvchi talablar, shuningdek, faoliyat standartlari va kasbiy etika me'yorlari, bank siyosatini belgilovchi va faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni bank ichki nazorat xizmati amalga oshiradi.

Ichki nazorat xizmati bank Ustavi va Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan ichki nazoratni tashkil etish to'g'risidagi nizom asosida faoliyat yuritadi.

Ichki nazorat xizmati Bank Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra tashkil etiladi. Bank, jumladan uning filiallarining ichki nazorat tizimi tuzilmasi Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanadi va Markaziy bank talablariga mos ravishda qayta ko'rib chiqilishi lozim. Ichki nazorat xizmati rahbari va xodimlari Bank Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

195. Ichki nazorat xizmati va uning xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

- ichki nazoratni amalga oshirish maqsadida bank rahbarlari va bo'linmalar xodimlaridan zaruriy boshqaruv va buxgalterlik hujjatlarini talab qilish;
- ichki nazoratni amalga oshirish maqsadida olingan hujjatlardan nusxa olish, bankning lokal hisoblash tarmoqlari va alohida kompyuter tizimlaridagi elektron ma'lumotlar bazasida saqlanayotgan fayllar va boshqa yozuvlardan nusxa olish;
- ichki nazorat vazifalarini bajarish maqsadida bankning boshqa bo'linmalari mutaxassislaridan ma'lumotlarni talab qilish va ulardan yordam olish;
- bank bo'linmalari, shuningdek, bank boshqaruvi raisining yozma ruxsati bilan hujjatlar (arxiv), naqd pullar va boyliklar (pul ombori), ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash va magnitli tashuvchilarda ma'lumotlarni saqlash uchun foydalaniladigan binolarga kirish;
- bank boshqaruv raisiga mijozlar bilan amaliyotlar, jumladan mijoz haqida mavjud axborotlarni tekshirish yoki qo'shimcha axborot olish bo'yicha yoki qonunchilikka binoan amaliyotlarga nisbatan bo'lajak harakatlar bo'yicha takliflar kiritish;
- bank xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan harakat va amaliyotlarning Markaziy bank, bank tomonidan olib borilayotgan siyosatni, qaror qabul qilish va uni amalga oshirish jarayonini, hisob va hisobot tashkil qilinishini, jumladan qabul qilinayotgan qarorlar, o'tkazilayotgan amaliyotlar (tuzilayotgan bitimlar), moliyaviy holat natijalari va bank faoliyati tavakkalchiliklarini belgilovchi bankning ichki me'yoriy hujjatlari talablariga mosligini aniqlash;
- bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan ichki nazorat qoidalari va boshqa bank hujjatlariga mos ravishda boshqa harakatlarni amalga oshirish.

196. Ichki nazorat xizmati va uning xodimlari majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- bank ichki nazorat qoidalari va boshqa ichki hujjatlarda bayon qilingan vazifalarni bajarish va maqsadlarga erishish uchun o'z vakolatlari doirasida zarur choralarini qo'llash;
  - bankning tegishli bo'linmalaridan olingan hujjatlarning saqlanishi va qaytarilishini ta'minlash;
  - o'z vazifalarini amalga oshirishda olingan axborotlarni sir tutish;
  - bank bo'linmalari va alohida xodimlar faoliyatini muntazam tekshirish yo'li bilan ularning harakatlari qonunchilik, me'yoriy hujjatlar va kasbiy faoliyat standartlari, bank siyosatini belgilovchi va faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlar, lavozim yo'riqnomalari talablariga mosligining doimiy nazoratini tashkil etish;
  - bank xodimlari tomonidan qabul qilingan qaror bo'yicha o'rnatilgan tartib, funksiyalar va vakolatlarga rioya qilinishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlash;
  - aniqlangan qoida buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqish. Qoida buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha tavsiya va ko'rsatmalarni bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
  - tekshirishning har bir dalilining to'liq hujjatlashtirilishini ta'minlash va tekshirish jarayonida o'rganilgan barcha masalalarni aks ettiruvchi tekshirish natijalari, aniqlangan kamchilik va buzilishlar, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar, shuningdek, qoidabuzarlarga nisbatan ma'muriy choralar yoki boshqa ta'sir usullarini qo'llash bo'yicha xulosalarni rasmiylashtirish;
  - qoida buzishlarni bartaraf etish, shuningdek, bank xodimlari faoliyatini tahlil qilish maqsadida bank ijro organi va bankning tegishli bo'linmalari rahbarlariga tekshirish yakunlari bo'yicha xulosalarni taqdim etish;
- Bank ijro organlariga quyidagilar bo'yicha o'z vaqtida axborot yetkazish:
- qayta aniqlangan barcha tavakkalchiliklar;
  - xodimlar tomonidan qonunchilik, me'yoriy hujjatlar, ichki yo'riqnomalarni buzish bo'yicha aniqlangan barcha holatlar haqida;
  - tekshirilayotgan bank bo'linmalari rahbarlari tomonidan yo'l qo'yilgan qoida buzishlarni bartaraf etish bo'yicha qo'llanilgan choralar va ularning natijalari haqida;
  - ichki nazorat tizimi yuritilishi bilan bog'liq bank tomonidan o'rnatilgan tartibning aniqlangan barcha buzish holatlari haqida;
  - bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan ichki nazorat qoidalari va bankning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

197. Bank boshqaruvi raisi jinoiy yo'llar bilan olingan daromadlarni qonuniylashtirish, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash, uni jinoiy kapitallar kirishidan himoyalashning oldini olish maqsadida mas'ul xodim tayinlaydi. U maxsus lavozimga ega bo'lib, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida ichki nazorat qoidalarni, uni amalga oshirish dasturini, shuningdek, ko'rsatilgan maqsadlarda boshqa ichki tashkiliy choralar ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul shaxs hisoblanadi.

Mas'ul xodim, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida ichki nazorat qoidalari amalga oshirilishini, jinoiy yo'llar bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha vakolatli tashkilotga amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda ma'lumotlar taqdim etilishini tashkil qiladi.

## **XXI. Bankning minoritar aksiyadorlari qo'mitasi**

198. Bank minoritar aksiyadorlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ularning orasidan tashkil etilgan minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

199. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar bankka Bank Kuzatuv kengashiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish uchun nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda kiritiladi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolarini saylashda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hozir bo'lgan va Bank Kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatmagan yoxud aksiyadorlarning o'tkazilayotgan umumiy yig'ilishida Bank Kuzatuv kengashiga nomzodlari saylanmagan aksiyadorlar ishtirok etadi.

Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga Boshqaruv raisi va a'zolari, shuningdek Bank Kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga (taftishchisi etib) saylangan shaxslar kirishi mumkin emas.

200. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Bank Kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;

- minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;

- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat tashkilotiga minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;

- qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

201. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining qarorlari oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining majlislari uning miqdor tarkibiga saylangan shaxslarning kamida to'rt dan uch qismi hozir bo'lganda vakolatlidir.

202. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolarining soni uch kishidan iborat.

203. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi qabul qilingan qarorlar to'g'risida har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beradi.

204. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi raisi ushbu qo'mita tarkibidan minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolari tomonidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

205. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi raisi minoritar aksiyadorlar qo'mitasi vakolat doirasiga kiritilgan barcha masalalar bo'yicha bankning hujjatlaridan foydalanish huquqiga ega.

206. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi bankning xo'jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas.

207. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi faoliyatiga Bank Kuzatuv kengashining yoki Bank boshqaruvining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

## **XXII. Bankning qayta tashkil etilishi va tugatilishi**

208. Markaziy bank bilan kelishilgan holda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra bank qayta tashkil etilishi mumkin.

Bank aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq yoki sud qarori bilan tugatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda bank qayta tashkil etilishi, qo'shilish, ajralib chiqish, bo'linish, birikish va qayta tuzilishi mumkin.

209. Bankning qayta tashkil etilishi bankka tegishli huquq va majburiyatlarning uning qonuniy merosxo'rlariga o'tishiga olib keladi.

Bank qayta tashkil etilgan holda Banklar davlat reestriga zarur o'zgartirishlar kiritiladi.

Banklarni qayta tashkil etish yo'li bilan vujudga kelgan yuridik shaxslarning davlat ro'yxatidan o'tishi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga binoan amalga oshiriladi.

210. Bankning tugatilishi boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga qonuniy merosxo'rlik tartibida huquq va majburiyatlarning o'tishsiz bank faoliyati to'xtatilishiga sabab bo'ladi.

Bankning tugatilishi O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik kodeksi", "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari, shuningdek, Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartib, muddat va talablarga rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

211. Bankning tugatilishiga quyidagilar asos hisoblanadi:

- Markaziy bank litsenziyani chaqirib olganda;
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra;
- Bankrot deb e'lon qilinganda.

212. Bankni tugatish haqida qaror qabul qilgan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Markaziy bank bilan kelishilgan holda tugatish komissiyasini tayinlaydi va tugatish tartibi va muddatini belgilaydi.

Tugatish komissiyasi:

- ommaviy axborot vositalarida bank faoliyati to'xtatilganligi, uning kreditorlari tomonidan talablarni e'lon qilish tartibi va muddati haqida e'lon qiladi (ushbu muddat bankning tugatilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan kundan boshlab ikki oydan kam bo'lmasligi lozim);

- kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarni undirish uchun chora-tadbirlar qo'llaydi, shuningdek, kreditorlarni bankning tugatilishi haqida yozma shaklda xabardor qiladi.

Kreditorlar tomonidan da'vo e'lon qilish uchun belgilangan muddat yakunlanishi bilan tugatish komissiyasi oraliq tugatish balansini aniqlaydi, unda tugatilayotgan bank mulki tarkibi, kreditorlar tomonidan e'lon qilingan talablar ro'yxati, shuningdek, ularni ko'rib chiqish natijalari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Oraliq tugatish balansi Markaziy bank bilan kelishilgan holda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar bankda mavjud pul mablag'lari kreditorlar talablarini qondirish uchun etarli bo'lmasa, tugatish komissiyasi sud qarorini bajarish uchun belgilangan tartibda ommaviy savdoda bankning boshqa mulkini sotishni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida o'rnatilgan navbat tartibida oraliq tugatish balansiga muvofiq ravishda tugatish komissiyasi tomonidan tugatilayotgan bankning kreditorlariga pul summalarini to'lash amalga oshiriladi.

Kreditorlar bilan hisoblashish yakunlangach, tugatish komissiyasi Markaziy bank bilan kelishilgan holda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan tugatish balansini tuzadi.

Kreditorlar bilan hisoblashish yakunlangach qolgan tugatilayotgan bankning mulki tugatish komissiyasi tomonidan o'rnatilgan tartibda aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

Birinchi navbatda quyidagi aksiyadorlardan sotib olinishi kerak bo'lgan aksiyalar bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi:

- agar yirik bitimni ma'qullash to'g'risidagi masala bo'yicha Bank Kuzatuv kengashining yakdilligi bo'lmasa va Bank Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra yirik bitim bo'yicha masala aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga xavola etilgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashgan ovoz beruvchi aksiyalariga ega aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida bankni qayta tuzish to'g'risidagi qarorga yoki yirik bitimni ma'qullashga qarshi ovoz bergan aksiyadorlar yoki bu masalalar bo'yicha ovoz berishda qatnashmagan aksiyadorlardan;

- Bank ustaviga o'zlarining huquqlarini cheklovchi o'zgarish va qo'shimchalar kiritish va bank Ustavini yangi tahrirda tasdiqlashga oid masalalar bo'yicha qarshi ovoz bergan yoki qatnashmagan aksiyadorlardan;

Ikkinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha hisoblangan, lekin to'lanmagan dividendlar va bank Ustavida belgilangan imtiyozli aksiyalar bo'yicha tugatish qiymati bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi;

Uchinchi navbatda oddiy aksiyalarga ega aksiyadorlar o'rtasida tugatilayotgan bank mulkini taqsimlash amalga oshiriladi.

Mulk taqsimoti har bir navbatda oldingi navbat to'liq taqsimlangach, amalga oshiriladi.

Bank ustavida belgilangan muayyan turdagi imtiyozli aksiyalarning tugatish qiymati bo'yicha to'lovlar oldingi navbatdagi bank Ustavida belgilangan imtiyozli aksiyalarning tugatish qiymati bo'yicha to'lovlar bajarilgach amalga oshiriladi.

Agar bir turdagi imtiyozli aksiyalarga ega aksiyadorlarning barchasiga hisoblangan, lekin to'lanmagan dividendlar va bank Ustavida belgilangan bir turdagi imtiyozli aksiyalarning tugatish qiymati bo'yicha to'lovlar uchun bankda mavjud mulk etarli bo'lmasa, bu turdagi imtiyozli

aksiyalarga ega aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli ushbu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib ravishda mulk taqsimoti amalga oshiriladi.

213. Bank o'z faoliyatini tugatganligi haqida Banklarning davlat reestridan chiqarib tashlangandan so'ng bank tugatilishi yakunlangan, bank esa o'z faoliyatini to'xtatgan hisoblanadi.

Bank faoliyati to'xtatilganligi haqida e'lon matbuotda chop etiladi.

**XXIII. Bank Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish**

214. Bank Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi bank Ustavini tasdiqlash O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda va unga binoan qabul qilingan Ustav asosida amalga oshiriladi.

215. Bank Ustavidagi o'zgartirish va qo'shimchalar yoki yangi tahrirdagi bank Ustavi Markaziy bank tomonidan ro'yxatga olinadi va ular davlat ro'yxatidan o'tgan vaqtdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga kirgan hisoblanadi.

Mazkur Ustavda tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq ko'rib chiqiladi.

**Bank Kuzatuv kengashi raisi**

**M.SH.Yo'ldashev**





» mart 2023 yil № 1a

Фаргона шаҳар, С.Темур кучаси,  
71-уйда жойлашган "STROY  
MONTAJ INVEST" МЧЖ маъмурий  
биносининг мажлислар зали

Йиғилиш бошланиш вақти - 11-00

"Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банки 20.000.000 дона овоз берувчи акцияларига эгаллик қилувчи акциядорлар эга бўлган овозларнинг умумий сони – 20.000.000 та. Йиғилишда иштирок этган акциядорлар ва акциядорларнинг вакиллари 16.260.000 дона овоз берувчи акцияларга эга ва 16.260.000 та овоздан иборат ҳамда Банкнинг жами жойлаштирилган овоз берувчи акцияларининг 81,3% ини ташкил этади.

Йиғилиш кворуми -81,3%.

Йиғилиш раиси: М.Ш.Йўлдашев - Банк кузатув кенгаши раиси.

Йиғилишда иштирок этганлар: "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банки акциядорлари ва акциядорларнинг вакиллари, Банк кузатув кенгаши аъзолари, Банк бошқаруви аъзолари.

Йиғилиш котиби: М.А.Муротова

#### КУН ТАРТИБИ:

1. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банки санок комиссияси аъзолари сони, ва тахсий таркибини тасдиқлаш.
2. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банки акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилиши регламентини тасдиқлаш.
3. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банкининг 2016-2021 йиллар якуни бўйича тақсимланмаган фойдасини тақсимлаш.
4. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банки эълон қилинган акцияларининг энг катта миқдорини белгилаш.
5. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банкининг янги таҳрирдаги Уставини тасдиқлаш.
6. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банкининг Тафтиш комиссияси аъзолари шартларини муддатидан илгари тугатиш.
7. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банкининг муддатидан илгари ваколати тугатилган Тафтиш комиссияси аъзолари ўрнига янги Тафтиш комиссияси аъзолари сайлаш.
8. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банкининг янги таҳрирдаги ташкилий шартларини тасдиқлаш.

Кун тартибидаги масалаларни кўриб чиқиш учун, Йиғилиш раиси М.Ш.Йўлдашев "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банки акциядорларининг умумий Йиғилиши иштирокчиларига миннатдорчилик билдирган ҳолда навбатдан ташқари Йиғилишни очик деб эълон қилди.

**1. Кун тартибидаги биринчи масала юзасидан,** Йиғилишда раислик қилувчи Банк кузатув кенгаши раиси М.Ш.Йўлдашев сўзга чиқиб, Банк кузатув кенгаши томонидан 3 кишидан иборат қуйидаги санок комиссияси таркиби тузилиб, акциядорларнинг навбатдан ташқари умумий Йиғилиши кун тартибига ушбу таркибни тасдиқлаш масаласи киритилганлигини айтиб ўтди ва қуйидаги қарор матни овозга қўйилди:

1.1. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банкининг санок комиссиясини 3 кишидан иборат қуйидаги таркибда 2022 йил якунлари бўйича акциядорларнинг навбатдаги йиллик умумий Йиғилишига қадар тасдиқлаш:

1. Мадрахимова Ферузахон Тўлқинжоновна – Бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисобот бўлими бош мутахассиси;

2. Турдикулов Элдор Эркинжон ўғли - Амалиёт бошқармаси ўринбосари;

3. Ашуров Дилшод Шавкатович – Бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисобот бўлими бошлиғи, Бош бухгалтер.

**Овоз бериш якунлари:**

"Ёклайман" - 16.260.000,0 та овоз, 100%

"Қаршиман" - йўқ, 0%

"Бетарафман" - йўқ, 0%

Юқоридагиларни инobatта олган ҳолда, Банк акциядорлари умумий йиғилиши,

#### **ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1.1. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банкининг санок комиссияси 3 кишидан иборат қуйидаги таркибда 2022 йил якунлари бўйича акциядорларнинг навбатдаги йиллик умумий йиғилишига қадар тасдиқлансин:

1. Мадрахимова Ферузахон Тўлқинжоновна – Бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисобот бўлими бош мутахассиси;

2. Турдикулов Элдор Эркинжон ўғли - Амалиёт бошқармаси ўринбосари;

3. Ашуров Дилшод Шавкатович – Бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисобот бўлими бошлиғи, Бош бухгалтер.

**2. Кун тартибидаги иккинчи масала юзасидан,** Йиғилишда раислик қилувчи Банк кузатув кенгаши раиси М.Ш.Йўлдашев, акциядорларнинг умумий Йиғилишининг регламентини тасдиқлаб олиш зарурлигини билдирди ва қуйидаги қарор матнини овозга қўйди:

2.1. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банки акциядорларининг умумий йиғилиши регламентини қуйидагича тасдиқлаш:

- асосий масалалар бўйича маърузалар - 10 дақиқагача;

- қўшимча маърузалар, мунозара ва муҳокамалар учун - 15 дақиқагача;

- санок комиссияси томонидан овоз бериш якунларини ҳисоблаб чиқилгунга қадар маъруза - 15 дақиқагача;

- овоз бериш якунларини эълон қилиш ва йиғилишни якунлаш учун - 15 дақиқагача.

**Овоз бериш якунлари:**

"Ёклайман" - 16.260.000,0 та овоз, 100%

"Қаршиман" - йўқ, 0%

"Бетарафман" - йўқ, 0%

Юқоридагиларни инobatта олган ҳолда, Банк акциядорлари умумий йиғилиши,

#### **ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

2.1. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банки акциядорларининг умумий йиғилиши регламенти қуйидагича тасдиқлансин:

- асосий масалалар бўйича маърузалар - 10 дақиқагача;
- кўшимча маърузалар, мунозара ва муҳокамалар учун - 15 дақиқагача;
- саноқ комиссияси томонидан овоз бериш яқунларини ҳисоблаб чиқилгунга қадар танаффус - 15 дақиқагача;
- овоз бериш яқунларини эълон қилиш ва йиғилишни яқунлаш учун - 15 дақиқагача.

**3. Кун тартибидаги учинчи масала юзасидан,** Йиғилишда раислик қилувчи Банк кузатув кенгаши раиси М.Ш.Йўлдашев, "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банкида 2016 йилда 47 268 735 сўм 53 тийин, 2017 йилда 1 918 807 065 сўм 73 тийин, 2018 йилда 4 242 804 343 сўм 92 тийин, 2019 йилда 15 167 649 312 сўм 52 тийин, 2020 йилда 16 379 669 424 сўм 02 тийин, 2021 йилда 4 012 199 850 сўм 61 тийин жами 41 768 398 732 сўм 33 тийин тақсимланмаган фойдаси мавжудлигини, мазкур йиллар аудит текширувидан ўтказилганлигини, ижобий аудитор хулосалари олинганлигини, банк ташкил қилинганидан буён акциядорларга умуман дивидентлар тўланмаганлигини, 2017-2021 йиллар давомида олинган тақсимланмаган фойданинг 15 млрд. сўм миқдоридagi қисмини дивидентлар тўлаш орқали тақсимлашни мажлис қатнашчиларига таклиф қилди.

**Муҳокамадан сўнг, кун тартибидаги учинчи масала юзасидан қуйидагилар овозга кўйилди:**

3.1. Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банкининг 41 768 398 732 сўм 33 тийин тақсимланмаган фойдаси қуйидагича тақсимлаш:

- а) 15 000 000 000 сўм ёки 35,91 фоиз миқдорда оддий акциялар номинал қийматининг 15 (ўн беш) фоиз миқдорда дивиденд тўлаш учун йўналтириш. Бунда: ҳар бир дона оддий акцияга 750 (етти юз эллик) сўм дивиденд ҳисоблансин ва тўлаш; дивиденд пул маблағлари билан тўлаш; дивиденд қарор қабул қилинган кундан эътиборан 60 кун ичида тўлаб бериш; дивиденд тўлашни бошлаш санасини 2023 йил 23 март, тўлашни тугатиш санасини 2023 йил 21 май куни этиб белгилаш;

- б) 26 768 398 732,33 сўм ёки 64,09 фоиз миқдордаги тақсимланмаган фойда банкнинг тақсимланмаган фойда ҳисобвароғида қолдириш.

3.2. Дивидентларни тўлашни 60 кун ичида яқунлаш ишлари Банк бошқаруви раиси Ю.Аширалиев зиммасига юклатиш.

**Овоз бериш яқунлари:**

"Ёклайман" - 16.260.000,0 та овоз, 100%

"Қаршиман" - йўқ, 0%

"Бетарафман" - йўқ, 0%

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, Банк акциядорлари умумий Йиғилиши,

### **ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

3.1. Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банкининг 41 768 398 732 сўм 33 тийин тақсимланмаган фойдаси қуйидагича тақсимлансин:

- а) 15 000 000 000 сўм ёки 35,91 фоиз миқдорда оддий акциялар номинал қийматининг 15 (ўн беш) фоиз миқдорда дивиденд тўлаш учун йўналтирилсин. Бунда: ҳар бир дона оддий акцияга 750 (етти юз эллик) сўм дивиденд ҳисоблансин ва тўлансин; дивиденд пул маблағлари билан тўлансин; дивиденд қарор қабул қилинган кундан эътиборан 60 кун ичида тўлаб берилсин; дивиденд тўлашни бошлаш санаси 2023 йил 23 март, тўлашни тугатиш санаси 2023 йил 21 май куни этиб белгилансин;

- б) 26 768 398 732,33 сўм ёки 64,09 фоиз миқдордаги тақсимланмаган фойда банкнинг тақсимланмаган фойда ҳисобвароғида қолдирилсин.

3.2. Дивидентларни тўлашни 60 кун ичида яқунлаш ишлари Банк бошқаруви раиси Ю.Аширалиев зиммасига юклатилсин.

4. **Кун тартибдаги тўртинчи масала юзасидан,** Йиғилишда раислик қилувчи М.Ш.Йўлдашев, "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банки бугунги кунда 20.000.000 дона овоз берувчи акцияларига эгалик қилувчи акциядорлардан ташкил топганлиги, бугунги кундаги талаблардан келиб чиқиб эълон қилинган акциялар энг кўп миқдорини белгилашни, устав фондни кўпайтириш учун қўшимча 20 000 000 (йигирма миллион) дона умумий қиймати 100 000 000 000 (юз миллиард) сўмлик акция чиқаришни, чиқарилаётган акцияларни 10 000 000 донасини бир донасини биржада энг камида 25 000 сўмдан сотишни йўлга қўйиш кераклигини мажлис катнашчиларига таъкидлаб ўтди.

**Мухокамадан сўнг, кун тартибдаги тўртинчи масала юзасидан қуйидагилар овозга қўйилди:**

4.1 "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банки устав капиталини ошириш мақсадида, жойлаштирилган акцияларига қўшимча равишда жойлаштиришга ҳақли бўлган эълон қилинган акцияларнинг миқдори номинал қиймати 5 000 (беш минг) сўмлик 20 000 000 (йигирма миллион) дона умумий қиймати 100 000 000 000 (юз миллиард) сўм бўлган, тасиснинг номи ёзилган, ҳужжатсиз шаклдаги, оддий акциялардан иборат қилиб белгилаш;

4.2. Қўшимча чиқарилаётган 20 000 000 дона акцияларни 10 000 000 донасини бир донасини биржада энг камида 25 000 сўмдан сотишни йўлга қўйиш чора тадбирлари белгилаш;

**Овоз бериш яқунлари:**

"Ёклайман" - 16.260.000,0 та овоз, 100%

"Қаршиман" - йўқ, 0%

"Бетарафман" - йўқ, 0%

Юқоридагиларни инobatга олган холда, Банк акциядорлари умумий йиғилиши,

**ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

4.1. "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банки устав капиталини ошириш мақсадида, жойлаштирилган акцияларига қўшимча равишда жойлаштиришга ҳақли бўлган эълон қилинган акцияларнинг миқдори номинал қиймати 5 000 (беш минг) сўмлик 20 000 000 (йигирма миллион) дона умумий қиймати 100 000 000 000 (юз миллиард) сўм бўлган, тасиснинг номи ёзилган, ҳужжатсиз шаклдаги, оддий акциялардан иборат қилиб белгилансин;

4.2. Қўшимча чиқарилаётган 20 000 000 дона акцияларни 10 000 000 донасини бир донасини биржада энг камида 25 000 сўмдан сотишни йўлга қўйиш чора тадбирлари белгилансин.

5. **Кун тартибдаги бешинчи масала юзасидан,** Йиғилишда раислик қилувчи Банк президенти кенгаши раиси М.Ш.Йўлдашев сўзга чиқиб, бугунги кундаги замон талабларидан келиб чиққан холда банк уставига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилганлигини маълум қилиб банкнинг янги таҳрирдаги Уставини йиғилиш иштирокчиларига ўқиб эшиттирди.

**Мухокамадан сўнг, кун тартибдаги бешинчи масала юзасидан қуйидагилар овозга қўйилди:**

5.1 Банкнинг янги таҳрирдаги Уставини тасдиқлаш.

5.2. Банкнинг янги таҳрирдаги Уставини белгиланган тартибда Ўзбекистон Республикаси Марказий банкidan рўйхатдан ўтказиш.

**Овоз бериш яқунлари:**

"Ёклайман" - 16.260.000,0 та овоз, 100%

"Қаршиман" - йўқ, 0%

"Бетарафман" - йўқ, 0%

Юқоридагиларни инobatга олган холда, Банк акциядорлари умумий йиғилиши,

## ҚАРОР ҚИЛАДИ:

5.1 “Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банкининг янги тахрирдаги Устави 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

5.2. “Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банки Бошқаруви раиси О.Ю.Аширалиев зиммасига янги тахрирдаги Уставни Ўзбекистон Республикаси Марказий Банкида қонунчиликда белгиланган тартибда рўйхатдан ўтказиш бўйича ишларни амалга ошириш вазифаси юклатилсин.

6. Кун тартибидаги олтинчи масала юзасидан, Йиғилишда раислик қилувчи Банк қўзғатув кенгаши раиси М.Ш.Йўлдашев сўзга чиқиб, “Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банкининг Тафтиш комиссияси аъзолари ваколатини муддатидан илгари тугатиш тарақлигини айтиб ўтди.

Муҳокамадан сўнг, кун тартибидаги олтинчи масала юзасидан қуйидагилар овозга қўйилди:

6.1 “Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банкининг Тафтиш комиссияси аъзолари ваколатини муддатидан илгари тугатиш.

### Овоз бериш яқунлари:

“Ёклайман” - 16.260.000,0 та овоз, 100%

“Қаршиман” - йўқ, 0%

“Бетарафман” - йўқ, 0%

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, Банк акциядорлари умумий йиғилиши,

## ҚАРОР ҚИЛАДИ:

6.1 “Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банкининг қуйидаги Тафтиш комиссияси аъзолари ваколати муддатидан илгари тугатилсин:

1) Абдиламидов Ғайрат Хайитбоевич;

2) Аҳмедов Муроджон Мухторович;

3) Саримсаков Фарход Аҳматович;

7. Кун тартибидаги еттинчи масала юзасидан, Йиғилишда раислик қилувчи Банк қўзғатув кенгаши раиси М.Ш.Йўлдашев, “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунига мувофиқ акциядорлар томонидан банк Тафтиш комиссияси аъзолигига номзодлар кўрсатилганлиги тўғрисида таъкидлаб ўтди:

Муҳокамадан сўнг, кун тартибидаги еттинчи масала юзасидан қуйидагилар овозга қўйилди:

7.1. “Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банки Банк Тафтиш комиссияси аъзолари қуйидаги таркибда I (Бир) йил муддатга сайлаш:

1. Ёрматов Зиёхиддин Илмидинович, Банк Тафтиш комиссияси раиси, Банкнинг акцияларига эга эмас;

2. Атаев Фарход Маматожиевич, Банкнинг акцияларига эга эмас;

3. Дарвешов Талъатжон Бахтиёржонович, Банкнинг акцияларига эга эмас.

### Овоз бериш яқунлари:

“Ёклайман” - 16.260.000,0 та овоз, 100%

“Қаршиман” - йўқ, 0%

“Бетарафман” - йўқ, 0%

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, Банк акциядорлари умумий йиғилиши,

## ҚАРОР ҚИЛАДИ:

7.1. “Мадад Инвест Банк” акциядорлик тижорат банкининг муддатидан илгари ваколати тугатилган Тафтиш комиссияси аъзолари ўрнига қуйидаги номзодлар янги Тафтиш

комиссияси аъзолари этиб 2023 йил якунлари бўйича акциядорларнинг навбатдаги йиллик умумий йиғилишига қадар 1 (бир) йил муддатга сайлансин:

1. Ёрматов Зиёхиддин Илмидинович, Банк Тафтиш комиссияси раиси, Банкнинг акцияларига эга эмас;
2. Атаев Фарход Маматожиевич, Банкнинг акцияларига эга эмас;
3. Дарвешов Талъатжон Бахтиёржонович Банкнинг акцияларига эга эмас.

**8. Кун тартибидаги саккизинчи масала юзасидан,** Йиғилишда раислик этувчи Банк кузатув кенгаши раиси М.Ш.Йўлдашев, бугунги кундаги банк соҳасидаги конун ва қарорлар ўзгаришларидан келиб чиққан ҳолда банкнинг янги ташкилий тузилмасини ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга тадбиқ этиш тўғрисида гапириб ўтди.

**Муҳокамадан сўнг, кун тартибидаги саккизинчи масала юзасидан қуйидагилар овозга қўйилди:**

8.1 "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банкининг ташкилий тузилмасига ўзгартиришлар киритилиб, иловага мувофиқ янги таҳрирда тасдиқлаш;

**Овоз бериш якунлари:**

"Ёклайман" - 16.260.000,0 та овоз, 100%

"Қаршиман" - йўқ, 0%

"Бетарафман" - йўқ, 0%

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, Банк акциядорлари умумий йиғилиши,

### **ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

8.1 "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банкининг янги таҳрирдаги ташкилий тузилмаси тасдиқлансин.

Кун тартибидаги барча масалалар бўйича тегишли қарорлар қабул килинган, Йиғилиш раиси М.Ш.Йўлдашев "Мадад Инвест Банк" акциядорлик тижорат банки акциядорларининг навбатдаги умумий йиғилиши иштирокчиларига миннатдорчилик билдирди ҳамда йиғилишни ёпик деб элон қилди.

Йиғилиш баённомаси 2023 йил 23 март куни 2 нусхада тузилди.

Йиғилиш раиси

М.Ш.Йўлдашев

Йиғилиш котиби

М.А.Муротова



**MADAD  
INVEST  
BANK**

150100, O'zbekiston Respublikasi,  
Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri,  
Mustaqillik ko'chasi, 312  
Tel.: (+99873) 241-70-31  
Faks: (+99873) 241-70-32  
info@madadinvestbank.uz

UKSÁK TARAQQIYOT SARI

01/600

14 mart 2023 yil

**O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy bankiga**

“Madad invest bank” aksiyadorlik tijorat banki Sizga “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli qaroriga muvofiq Bank ustav kapitalini 200 mlrd.so'mga yetkazish uchun, bank aksiyadorlarining 2023 yil 23 martdagi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi qarori bilan Ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib Bankning yangi tahrirdagi Ustavi tasdiqlanganligi ma'lum qiladi.


Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020 yil 25 maydagi 12/1-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risida”gi Nizomga muvofiq “Madad invest bank” aksiyadorlik tijorat bank Kuzatuv kengashi Sizdan, yangi tahrirdagi Ustavni ro'yxatdan o'tkazishingizni so'raydi.

Quyidagi xujjatlar ilova qilinadi:

- 1.Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 2023 yil 23 martdagi 12-sonli bayonnomasi-3 nusxada;
- 2.Bankning yangi tahrirdagi Ustavi-3 nusxada.

Bank Kuzatuv kengashi Raisi

  
M.SH.Yo'ldashev



31 MAR 2023

QO'LLIY QABUL QILINDI  
2023.09.18  
18:00

**Тикилган ва рақамланган**

41 ( Бир ) Дол  
варақдан иборат

18 сентябрь  
2023 йили

**ИМЗО**



O'zbekiston Respublikasi,  
Tashkent shahri,  
Farg'ona shahri,  
Yul ko'chasi, 312  
) 241-70-31  
estbank.uz